

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O`RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI

**XORIJIY MAMLAKATLAR IQTISODIYOTI VA
MAMLAKATSHUNOSLIK FAKULTETI**

**“MDH, Yaqin va O`rta Sharq mintaqasi
iqtisodiyoti va mamlakatshunosligi” kafedrası**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

**“O`ZBEKISTONDA KIMYO SANOATI RIVOJLANISHI
TENDENSIYALARI VA ISTIQBOLLARI”**

Bajardi: Xorijiy mamlakatlar iqtisodiyoti va mamlakatshunoslik (MDH mamlakatlari bo`yicha) ta`lim yo`nalishi 4-kurs talabasi Donayev Bunyod Dusiyorovich

Ilmiy rahbar: “MDH, Yaqin va O`rta Sharq mintaqasi iqtisodiyoti va mamlakatshunosligi” kafedrası o`qituvchisi. Ergashov D.R.

Ilmiy maslahatchi: “Iqtisodiy nazariya” kafedrası i.f.n. dotsent. Xolmatov N.B.

TOSHKENT – 2013

MUNDARIJA

KIRISH	3
I BOB. O`ZBEKISTONDA KIMYO SANOATI SALOHİYATI VA TARMOQ TARKIBI	8
1.1. O`zbekistonda kimyo mahsulotlari resurs bazasi.....	8
1.2. Kimyo sanoati tarmoq tarkibi	19
II BOB. O`ZBEKISTONDA KIMYO SANOATI RIVOJLANISH DINAMİKASI VA ISTIQBOLLARI	3 2
2.1. O`zbekiston iqtisodiyotida kimyo sanoatining o`rni.....	32
2.2. O`zbekistonda kimyo sanoatini rivojlanish istiqbollari.....	46
XULOSA	60
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR	65

Mavzuning dolzarbligi. Bugungi zamon texnologiyalarining rivojlanishi, ehtiyojlarni ortishi, istimolchilar uchun zarur bo`gan oziq ovqat, sanoatdagi muammolar, harbiy nizolar, xomashyoni yetishmasligi, yashash sharoitining yaxshilanib borishi kimyo mahsulotlariga bo`lgan talablarni ortishiga va kimyo sanoatiga bo`lgan etiborni yanada kuchaytirishga sabab bo`lmoqda.

O`zbekiston hududida tabiiy gaz, neft, ko`mir, oltingugurt, rangli metallar rudasi va boshqa xom ashyolar bo`lganligi uchun mamlakatimiz yirik kimyo sanoatlariga ega. Prezidentimiz I.A.Karimovning «O`zbekiston XXI asr bo`lag`asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari, taraqqiyot kafolatlari» asarlarida alohida ko`rsatib o`tilganidek: «O`zbekiston o`z yer osti boyliklari bilan haqli suratda faxrlanadi – bu yerda mashhur Mendeleev davriy sistemasining deyarli barcha elementlari topilgan....»¹.

Davlatimiz rahbari tomonidan milliy iqtisodiyotimizning kimyo tarmog`ini rivojlantirishga doimiy e`tibor qaratilayotgani, mamlakatimizda xomashyo zaxirasi boyligi, yuqori malakali kadrlar mavjudligi ishlab chiqarishni yangilash va kengaytirish imkonini bermoqda. Prezidentimiz I.A.Karimovning 2009 yil 12 martda qabul qilingan “2009-2014 yillarda ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnikaviy va texnologik qayta jihozlash bo`yicha eng muhim loyihalarni amalga oshirish chora-tadbirlari Dasturi to`g`risida”gi va 2009 yil 11 martda qabul qilingan “Qurilishni jadallashtirish va yangi turdagi kimyo mahsulotlarini o`zlashtirish chora-tadbirlari to`g`risida”gi qarorlari bu borada muhim dasturi amal bo`lib xizmat qilmoqda. Ushbu muhim vazifaning hal etilishi O`zbekiston kimyo sanoatining ham ichki, ham tashqi bozordagi o`rnini yanada mustahkamlaydi.

Bu jarayonda ishlab chiqaruvchilarning har tomonlama qo`llab-quvvatlanayotgani soha rivojiga xizmat qilmoqda. Tarmoq va tarmoqlararo hamkorlik mustahkamlanmoqda. Texnik va texnologik jihatdan qayta

¹ Prezidentimiz I.A.Karimovning «O`zbekiston XXI asr bo`lag`asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari, taraqqiyot kafolatlari» asari T. O`zbekiston 1997. 336-bet.

jihozlanayotgan korxonalarda xaridorgir, zamon talablariga mos va raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi ortib, ko'plab yangi ish o'rinlari yaratilmoqda².

O'zbekistonda bundan tashkari osh tuzi, fosforit, kaliy tuzi, oxak, gips, oltinugurt konlari, rangdor metallurgiya va paxtachilik sanoat chiqindilari va boshqa xom ashyolarga boydir. Shuning uchun xozirgi zamonda kimyo sanoatini O'zbekistonda rivojlanish kulay va zurrudir.

Umuman, 2012-yilda dunyoda loyihaviy moliyalash asosida umumiy qiymati 382 milliard dollarga teng to'qqiz yuzdan ziyod loyiha amalga oshirila boshlangan. Dunyoning eng yaxshi o'nta investitsion loyihasi qatoridan neft-gaz, tog'-kon sanoati, transport va kommunal infratuzilmalari loyihalari o'rin oldi. Ular Avstraliyada (to'rtta loyiha), AQSH, Fransiya, Buyuk Britaniya, Singapur, Germaniya va O'zbekistonda (bittadan loyiha) amalga oshirilmoqda. O'zbekistonda bu loyiha Ustyurt gaz-kimyo majmuasi hisoblanib, rivojlanayotgan mamlakatlar bozoridagi eng yirik investitsion loyiha, deb e'tirof etildi. Ustyurt gaz-kimyo majmuasi 2016-yildan ishga tushiriladi. Rivojlarga davlatlar kimyo sanoatiga katta etibor qaratayotgan bir vaqtda O'zbekiston ham bu tarmoqqa etibordan chetda qolgan emas. Yuqoridagi malumotlar bunga yaqqol misoldir³. Biroq kimyo sanoatida ham yechilmagan muammolar va sohaga tasir etuvchi omillar mavjud bo'lib, bu bitiruv malakaviy ish kimyo sanoati rivojlanishiga aks tasi etuvchi omillar va muammolar tasirini kamaytirishni o'rganishga qaratilgan.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi. Kimyo sanoatining mamlakat iqtisodiyotida tutgan o'rni va roli, soha rivojlanish O'zbekiston Prezidenti I. A. Karimovning bir qator asar va ma'ruzalarida keng yoritilgan.

O'zbekistonda kimyo sanoatining rivojlanishi Toshkent Davlat universiteti (hozirgi O'zbekiston milliy universiteti)ning kimyo, iqtisodiyot fakultetlari

² Prezidentimiz I.A.Karimovning 2009 yil 12 martda qabul qilingan "2009-2014 yillarda ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnikaviy va texnologik qayta jihozlash bo'yicha eng muhim loyihalarni amalga oshirish chora-tadbirlari Dasturi to'g'risida"gi va 2009 yil 11 martda qabul qilingan "Qurilishni jadallashtirish va yangi turdagi kimyo mahsulotlarini o'zlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari 23-64-37 b. O'zA, 2009.

³ Tomson-Reyter" jahon biznes axborot agentligining bo'linmasi – "Projekt faynens interneshnl" jurnali 2012-yil yakunlari bo'yicha.

tashkil etilishi bilan bog`liq.

O`zbekiston Respublikasida kimyo sanoatini rivojlantirish muammolari bir qator iqtisodchi olimlar, jumladan: Kasimov G.M., Ishmuhamedov A., Maxmudov B.J., To`xliiev N., O`lmasov A., Abdullaev Yo., N. Xolmatovlarning ilmiy ishlarida atroflicha tadqiq qilingan.

Shuningdek, bitiruv malakaviy ishini tayyorlashda bir qator internet resurslaridan ham foydalanildi.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi. O`zbekiston kimyo sanoati rivojlanish shart shroitlarini o`rganish va tendensiyalarini tahlil qilish natijasida kimyo sanoatini rivojlaniyah xususiyatlarini ochib berish va istiqbollarini ko`rib chiqish.

Bitiruv malakaviy ishining vazifalari. Qo`yilgan maqsadga erishish uchun quidagi bir nechta vazifalarni belgilab oladi.

- O`zbekiston kimyo mahsulotlari sesurs bazasini o`rganish va tahlil qilish.
- Kimyo sanoati tarmoq tarkibini yoritib berish.
- O`zbekistonda kimyo sanoatini iqtisodiyotdagi o`rni va rivojlanish shart sharoitlarini o`rganish.
- O`zbekistonda kimyo sanoati tendensiyalari va dinamikasini o`rganish.
- Istiqbol ko`rsatgich va loyihalar orqali O`zbekistonda kimyo sanoati rivojlanishini ustuvor yo`nalishlarini belgilab olish.

Bitiruv malakaviy ishining obekti. Ishning obekti O`zbekistonda kimyo mahsulotlari resurs bazasi va kimyo sanoati salohiyati tadqiqot obekti sifatida olindi.

Bitiruv malakaviy ishining predmeti. Ishning predmeti O`zbekistonda kimyo sanoati rivojlanish xususiyatlari, shart sharoit va yo`nalishlar tadqiqot predmeti sifatida olindi.

Bitiruv malakaviy ishining metodlari. Bitiruv malakaviy ishini yozish mobaynida qiyoslash, solishtirish, tahlil qilish, taqqoslash kabi usullardan foydalanildi. Bitiruv malakaviy ishining informatsion manbayi bo`lib, O`zbekiston

statistika qo`mitasi, O`zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, O`zbekiston Respublikasi Bojxona qo`mitasi, O`zbekiston Respublikasi Markaziy banki, O`zbekiston Respublikasi Milliy banki, O`zbekiston Axborat agentligi saytlari va O`zbekiston Milliy kubxonasi xizmat qildi.

Bitiruv malakaviy ishining ilmiy yangiligi quyidagilarda namoyon bo`ladi:

- Globallashuv sharoitida aholi ehtiyojlarini ortib borayotgan bir davrda O`zbekistonda kimyo mahsulotlari resurs salohiyati tahlil qilingan.
- O`zbekiston iqtisodiyotida kimyo sanoati tarmog`ini rivojlanish xususiyatlari yoritib berilgan.
- O`zbekiston milliy iqtisodiyotida kimyo sanoatini o`rni va rolini ahamiyati yuqoriligi tahlil qilingan
- Kimyo sanoati rivojlanishi tendensiyalari va istiqbollari yoritib berilgan.

Bitiruv malakaviy ishining amaliy ahamiyati. Maskur bitiruv malakaviy ishida asosan O`zbekiston kimyo sanoatining rivojlanishini tahlil etish, kimyo sanoatini resurs bazasi, kimyo sanoati kerkonalarini o`rganish, geografik joylashivi va ishlab chiqarish quvvatlari o`rganish, O`zbekistonda kimyo sanoatini milliy iqtisoddagi orni va istiqbolini tahlil etishni maqsad qilgan mutaxassilar uchun qo`shimcha qo`llanma sifatida foydalanishi mumkin. Maskur yo`nalishda tahlil oluvchi talabalar uchun mavzu bo`yicha maruzalar matni sifatida qo`llanilishi mumkin.

Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi. Maskur ish kirish, ikki bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati va ilova qismlarni o`zichiga oladi.

Bitiruv malakaviy ishining kirish qismida mavzuning dolzarbligi, o`rganilganlik darajasi, bitiruv malakaviy ishining maqsad va vazifasi, ishining obekti va predmeti, bitiruv malakaviy ishining metodlari va ilmiy yangiligi yoritib berilgan.

Bitiruv malakaviy ishining birinchi bobi “O`zbekistonda kimyo sanoati salohiyati va tarmoq tarkibi” deb nomlanib, unda O`zbekistonning resurs bazasi

geografik joylashivi, kimyo sanoati tarmoq tarkibi va undagi dinamik o`zgarishlar yoritib berilgan.

Bitiruv malakaviy ishining ikkinchi bobi “O`zbekistonda kimyo sanoati rivojlanish dinamikasi va istiqbollari” deb nomlanib, maskur bobda O`zbekiston iqtisodiyotida kimyo sanoatini o`rni va roli, rivojlarish xususiyatlari va istiqbollari tahlil qilingan.

Bitiruv malakaviy ishining yakunlovchi qismida ilmiy xulosa, amaliy tavsiya va takliflar mujassamlashtirilgan.

I BOB. O`ZBEKISTONDA KIMYO SANOATI SALOHİYATI VA TARMOQ TARKIBI

1.1. O`zbekistonda kimyo mahsulotlari resurs bazasi

O`zbekiston ulkan sanoat va mineral xom ashyo, qishloq xo`jaligi mahsulotlari, qayta ishlash jarayonida olinadigan katta miqdordagi yarim tayyor mahsulotlar, tabiiy boylik zahiralari va rivojlangan infratuzilma imkoniyatlariga ega.

Yer osti zahiralari zamonaviy ravishda izlab topish ishlari qimmatbaho, rangli va noyob metallar zahiralari, turli organik yoqilg`i mahsulotlari, neft, tabiiy gaz va gaz kondensanti, qo`ng`ir va yarim koksga oid ko`mir, slanes yoqilg`isi, uran va ko`pgina qurilish uchun zarur xom ashyo turlariga boy konlarni o`zlashtirish bilan bog`liqdir.

O`zbekiston hududida taxminan 100 dan ortiq mineral xom ashyoni o`z ichiga olgan, binobarin bulardan 60 turi iqtisodiyotda allaqachon foydalanilayotgan, ko`pgina foydali qazilmalar kompleksi aniqlangan.

O`zbekiston oltin, uran, mis, tabiiy gaz, volfram, kaliy tuzi, fosforitlar, kaolin kabi foydali qazilmalar zahirasi bo`yicha nafaqat MDH davlatlari o`rtasida, balki butun dunyoda etakchi o`rin egallashi tasdiqlangan. Jumladan, oltin zahirasi bo`yicha dunyoda to`rtinchi, uni qazib olish bo`yicha ettinchi, mis zahirasi bo`yicha o`ninchi – o`n birinchi o`rinlarni, uran zahirasi bo`yicha ettinchi-sakkizinchi, qazib olishda o`n birinchi – o`n ikkinchi o`rinlarni egallashi qayd etilgan.

Mamlakatda 3000 ta foydali qazilma koni aniqlangan bo`lib, ularning 1100 tasi qazib olishga tayyor, hususan, 50 tasi asl, 41 tasi rangli, nodir, raddioaktiv va qora metallar, 187 tasi yoqilg`i energetika, 19 tasi kon-kimyo kabi foydali qazilma konlaridan iborat.

O`zbekiston hududida sanoat ahamiyatiga ega bo`lgan 86 ta neft koni ochilgan.

Mineral xom ashyo resurslari, yoki yer osti resurslari hozirgi zamon industriyasini va fan-texnika progressi qator yo`nalishlarini rivojlantirishning asosi bo`lib xizmat qiladi. Mineral xom ashyo resurslari – energiya, xom ashyo va materiallar ajratib olish uchun foydalaniladigan, kelib chiqishi jihatidan minerallardan iborat tabiiy moddalardir.

Mineral resurslari mehnat predmeti sifatida tovarlar ishlab chiqarishda foydalaniladi, ishlab chiqarishni rivojlantirishning moddiy asosi va faol unsuri bo`lib xizmat qiladi. Fanning rivojlanishi, mehnat vositalarini takomillashtirish bilan mineral resurslarning ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirish va joylashtirish, ishlab chiqarishni ixtisoslashtirish va yiriklashtirishning muhim omili sifatida ahamiyati oshib boradi.

Mineral xom ashyo resurslari, yoki yer osti resurslari 2 ta katta qismga ajratish mumkin. Bular:

- **Metall mineral xom ashyo resurslari**
- **Nometall qazilma boyliklar.**

Metall mineral xom ashyo resurslari, minerallar xom ashyo tarkibiga kirib, sanoatning “noni”, mamlakat iqtisodiy qudratini yuksaltirishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Ma’lumki, xom ashyoga minerallardan tashqari qishloq xo`jaligida, sanoatda qayta ishlash uchun yetishtiriladigan materiallar ham kiradi.

Metallning o`zi ham asl metallar, rangli, nodir yoki kam uchraydigan va qora metallarga bo`linadi.

Asl metallar. Oltin va kumush ana shunday metallar jumlasiga kiradi. O`zbekistonda 30 dan ortiq tarkibida oltin va kumush mavjud bo`lgan ruda konlari aniqlangan.

Rangli va nodir metallar. Rangli va nodir metallar, ular jumlasiga mis, qalay, qo`rg`oshin, volfram, litiy, alyuminiy xom ashyosi, alunitlar, kaolinlar, stronsiy va uranni kiritish mumkin. O`zbekistonda bu mineral xom ashyolarning yirik zahiralari mavjud.

O`zbekistonda mis chiqaruvchi asosiy korxonalar olmalik tog`-metallurgiya kombinatidir. Mis konlari mis-porfir formatsiyasiga mansub bo`lib, O`rta Tyanshan, ayniqsa Qurama tog`lari uchun xosdir. Olmalikda uning Qalmoqqir, Saricheka, Dalniy, Qizota konlari bor.

Volfram molibden, qalay, vismut, simob va surmaning Janubiy Tyanshan va O`rta Tyanshan tog` tizimlariga kiradigan Qoratepa, Langar, Qo`ytosh, Ingichka, Yashton, Sargardon va boshqa konlari bor. 20 ta molebdenli formatsiya va ularning turlari aniqlangan.

Qora metallar asosan temir, titan, marganes va xromdan iborat bo`lib, ularning bir necha yuz konlari mavjud. Turli genetik tipdagi temir konlari va ruda to`plamlari, magnit anomaliyalari bor. Ular Tepabuloq titan-magnetik koni, Surenota, Shabrez, Mingbuloq va boshqa konlardir. Marganesning cho`kindi konlari Zarafshon, Zirabuloq, Qoratepa, Lolabuloq va boshqa tog`larda, respublikaning shimoliy va shimoli-sharqiy qismida, gidrotermal to`plamlari Chotqol tog`larida joylashgan. Xrom konlari ofiolit mintaqalari bilan bog`liq bo`lib, Qizilqum Farg`ona ofiolit belbog`ida, Tomditog` va Sulton-Uveys rayonlarida ko`proq uchraydi.

Nometall qazilma boyliklar. Bu turdagi mineral xom ashyolarni quyidagi guruhlarga ajratish mumkin: tog`-ruda xom ashyosi, tog`-kimyo xom ashyosi, qurilish materiallari, yer osti suvlari.

Tog`-ruda xom ashyosi o`z navbatida erituvchan shpat, dala shpati-kvarsi (chaqmoqtosh) xom ashyosi, qoliplaydigan xom ashyo, vollastonit, asbest va boshqalardan tarkib topadi. Erituvchan shpatning O`zbekistonda 30ga yaqin konlari va ko`rinishlari aniqlangan. Ular asosan Toshkentoldi geologiya-iqtisodiy rayonida joylashgan bo`lib, Qurama va Chotqol mintaqalarida ham qidiruv ishlari olib borish ko`zda tutilgan. Dala shpati kvarsit xom ashyosining zahiralari Navoiy viloyati (Langar, Karmana)da joylashgan. Ulardan keramika, forfor, shisha, fayans, emal idishlar ishlab chiqarishda keng foydalaniladi.

Tog`-kimyo xom ashyosi jumlasiga fosforitlar, tabiiy tuz, soda, agrokimyo xom ashyosi kiradi. Sulfat, kaliy, osh tuzi konlari topib ishga tushirilgan. Borsakelmas, boybichekan va Xo`jaikamda osh tuzining bitmas-tugamas zahiralari joylashgan.

Qurilish materiallarining 370 dan ortiq konlari hisobga olingan. Ularning 31 tasi sement xom ashyosi, 29 tasi qoplama tosh, 13 tasi keramzit xom ashyosi, 39 tasi qurilish toshlari, 175 tasi g`isht xom ashyosi, 67 tam qum-gravil materiallari, 22 tasi beton uchun qum va silikat buyumlari, 3 tasi shisha xom ashyosi va boshqa konlardir⁴.

Murakkab moddalar ichida eng ko`p tarqalgan va xalq xo`jaligida eng ko`p ishlatiladigan anorganik moddalar tuzlar bo`lib, Yerdagi hayotiy jarayonlarning me`yorida sodir bo`lishi uchun ularning ahamiyati juda kattadir.

Inson organizmi tuz muvozanatini doimo saqlab turishga muhtojdir va organizm umumiy massasiga nisbatan 5,5 % turli xildagi tuzlar shu vazifani bajarib turadi. Masalan, organizmda kalsiy tuzlari kamayib ketisa, muvozanatni tiklash uchun kalsiy tutgan mahsulotlarni iste`mol qilish xohishi paydo bo`ladi. Yoki turli sabablarga ko`ra organizm tez suyuqlik yo`qotadigan bo`lib qolganda, tuz suyuqlik bilan chiqib ketib qoladi, shuning uchun bunday holatlarda turli fiziologik tuz eritmalari beriladi.

Kalsiy, temir, kaliy, natriy va boshqa ko`plab metallar tutgan tuzlar tibbiyotda turli kasalliklarga qarshi dori vositalari sifatida qo`llanadi.

Azot, fosfor, kaliy, oltingugurt, kalsiy, natriy va mikroelementlar deb nomlanuvchi metallar guruhini tutgan tuzlar qishloq xo`jaligida o`g`itlar, ba`zi zararkunandalarga qarshi kurash vositalari, unuvchanlikni va hosildorlikni oshiruvchi o`stiruvchi vositalar sifatida keng qo`llanadi. *Natriy xlorid* NaCl.

Osh tuzi turmushda qanday maqsadlarda ishlatilishini esa hammamiz juda yaxshi bilamiz. Osh tuzi sanoatda xlor, ishqor, natriy metali olishda, tibbiyotda fiziologik

⁴ To`xliiev N., Xaqberdiev Q., Ermamatov Sh., Xolmatov N. O`zbekiston iqtisodiyoti asoslari. T. O`zME. 2007, 29-36 b.

eritma tayyorlashda ishlatiladi. *Kalsiy karbonat* CaCO_3 . Marmar, ohaktosh sifatida qurilishda ishlatiladigan tuz. Qurilish binolarini bezash maqsadida marmardan eng ko'p foydalaniladi. Toshkent metropoliteni bekatlarining chiroyiga chiroy qo'shib turibdi. *Ammoniy nitrat* NH_4NO_3 . Ammoniyli selitra nomi bilan qishloq xo'jaligida ishlatiladi. Farg'ona azotli o'g'itlar korxonasi sun'iy tarzda ishlab chiqariladi. Sanoatda turli metallar va boshqa tuzlarni olishda ham tuzlardan keng foydalaniladi. Masalan, temirning sulfidli tuzlaridan cho'yan va po'lat olinadi⁵.

O'zbekistonda yirik tog'-kimyo konlari kimyo sanoati tarmoqlariga turli xil xomahyolar yetkazib berish orqali kimyo sanoatida katta ahamiyat kasb etadi. Bunday konlar haqida biz 1.1.-jadvalda batafsil malumotga ega bo'lamiz.

1.1.-jadval

O'zbekistonda tog'-kimyo konlarining geografik joylashuvi

Kon turlari	Konlar nomi	Joylashgan hududi
Osh tuzi	Boybichakon, Xo'jayikon, Tyubegatang, Oqbosh, Laylimkon Borsakelmas, va Oqqal'a	Respublikaning janubiy g'arbida
Kaliy tuzlari	Tyubegatang, Oqtosh, Odamtosh, Okmachi	Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlari
Fosforit konlari	Molg'uzor va Nurota fosfarit koni	Navoiy va Surxondaryo viloyatlari
Oltinugurt	Sho'rsuv oltinugurt koni	Farg'ona vodiysi
flyurit konlari	Chotqol va Qurama Nurota flyurit konlari	Chotqol va Qurama tog' tizmalari, Hisor tizmasidagi Nurota tizmalari
Gaz-kimyo kanbinatlari	Muborak, Sho'rtan Ko'kdumaloq, Odamtosh,	Qashqadaryo vil Buxora vil

Manba: Foydalanilgan adabiyotlar asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Mamlakatimiz osh tuzi konlariga ham boy. Xo'jayikon, Borsakelmas, Boybichakon va Oqqal'a kabi konlarda 90 milliard tonna xomashyo bor. Lalmikon tuz koni Qashqadaryo viloyatining janubi-sharqidagi kon. Dehqonobod shaharchasidan 50 km janubda, Turkmaniston chegarasiga yaqin joyda. Sigmoid

⁵ "Jamiyat ijtimoiy-siyosiy gazeta"si © 2010

ko`rinishidagi antiklinaldan iborat. Antiklinalning uzunligi 6-8 km, eni 1-2,5 km. Tuz qatlamlari o`rta qismida yer yuzasigacha ko`tarilgan. Antiklinalning qanotlarida esa tuz 200-2000 m gacha qalinlikdagi gilmoya, alevrolit, qumtosh va ohaktoshlar tagida, neogen va yuqori yura davri yotqiziqlari orasida uchraydi. 1950- 60 yillarda geologlar yuqori yura davri yotqiziqlaridagi osh tuzi qatlamlari orasida 600-1000 m chuqurlikda qishloq xo`jaligi uchun zarur mineral o`g`it hisoblangan kaliy tuzining 3-5 m li qatlamlari borligini aniqladilar. Tuz qatlamlaridagi kaliy xloridning miqdori 32- 35%ni tashkil etadi. Kondagi osh tuzining zahirasi bir necha mlrd tonna, kaliy tuziniki 200 mln. tonnadan ziyodligi ma'lum. Tuz qatlamining qalinligi 400- 450 m. Ba'zi joylarida yer osti suvlari ta'sirida tuz yuvilib g'orlar paydo bo`lgan. Lalmikon tuz koni karvon yo`li yoqasida joylashganligi uchun 10-13-asrlarda u yerdan qazib olingan tuzni savdogarlar Afg'oniston, Hindiston va boshqalar. Yaqin Sharq mamlakatlariga, Buxoro, Xorazm va Farg'ona vodiysi shaharlariga olib borib sotganlar. Bu tuz "samarqand tuzi", "qarshi tuzi" nomi bilan mashhur bo`lgan⁶.

O`zbekistonda tabiiy gazdan yoqilgi o`rnida ham, xomashyo o`rnida ham foydalanish samaralidir. Tabiiy gazdan kimyoviy tola ishlab chiqarish, Rossiya Federatsiyasidan 40-50 foiz arzonga tushadi. Gazli, Muborak, Uchqir, Odamtosh, Sho`rtan kabi tabir gaz konlaridan olinayotgan gaz yuqori kondensatligi bilan ajralib turadi. Gaz kondensati organik sintezning asosidir. Uning har tonnasidan 50 kg sun'iy kauchuk, 150 kg plastik massa, 150 kg sun'iy tola, 100 kg erituvchi modda, 400 kg motor yoqilg`isi olish mumkin.

O`zbekiston tabiiy gaz, gaz kondensati va neft konlariga boy bo`lib, 5 ta regionga ajratilgan:

1. Ustyurt;
2. Buxoro - Xiva;

⁶ O`zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil

3. Janubi g`arbiy Hisor;
4. Surxondaryo;
5. Farg`ona.

Gaz konlari: tabiiy gaz konlari, gaz kondinsati konlari va neft konlariga bo`linishi mumkin.

Birinchi tipdagi gaz konlari tabiiy gaz konlari deb atalib, asosan metandan tashkil topgan bo`ladi. Metanga qo`shimcha sifatida oz miqdorda etan, propan, butan, pentanning bug`lari hamda nouglevodorod birikmalar: CO₂, N₂ va ayrim hollarda H₂S bo`lishi mumkin. Bu tipdagi konni Respublikamizning Sho`rtan gaz konidagi xom gazning tarkibida ko`rishimiz mumkin.

1.2-Jadval

Sho`rtan gaz koni xom gazining tarkibi (% da.)

Azot	1,584	n - Butan	0,260
CO ₂	2,307	i – Pentan	0,110
Metan	90,52	Geksan	0,119
Etan	3,537	Geptan	0,112
Propan	1,06	H ₂ S	0,08
i – Butan	0,209	n - Pentan	0,093

Manba: Foydalanilgan adabiyotlar asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Ikkinchi tipdagi konlarda oltingugurt, gazlar odatdagi gazdan farq qilib, metandan tashqari ko`p miqdorda (2-5% va undan ortiq) C₅ va undan yuqori gomologlari mavjud bo`ladi.

Mamlakatimizning ko`pgina gaz konlari (98 %) oltingugurtli gazdir. Shuning uchun ham gaz kondensatini qayta ishlash bo`yicha ishlab turgan va loyihalashtirilayotgan ob`yektlarning hammasida oltingugurtli birikmalardan foydalanish nazarda tutilgan. Endilikda mamlakat yoqilg`i-energetika sanoatining gigantlariga aylangan Farg`ona neftni qayta ishlash, Muborak gazni qayta ishlash zavodlari hamda Sho`rtan gaz-kimyo majmuida yiliga 100 ming tonnaga yaqin suyultirilgan gaz ishlab chiqarilmoqda.

Muborakda tabiiy gaz tarkibida oltingugurtni ajratib oladigan zavod qurildi. Rangli metallurgiya korxonalarida sulfat kislota olinadi. Popdagi rezina zavodida kalish, rezina quvurlar hamda mashina va mexanizmlar uchun turli xil rezina qismlar ishlab chiqarilmoqda. Jizzaxdagi zavodda esa politelin plyonkalar hamda plastmassa quvurlar tayyorlanadi.

Tabiiy gazdan azotli o'g'it va kimyoviy tola ishlab chiqaradigan zavodlar Farg'ona va Navoiy shaharlarida ham barpo etildi. 1946-yilda Qo'qonda, 1957-yilda Samarqandda superfosfat zavodi ishga tushdi. 1998-yilda Qizilqum fosforit kombinati ishga tushirildi. Unda 2,7 million tonna fosforit konsentrati olinadi.

Qazib olinayotgan oltingugurt kolchedani, marganes, bariy, talk, ohaktosh singari minerallar kimyo sanoatining turli tarmoqlari ehtiyojini qondirmoqda. Lok-bo'yoq sanoati, sun'iy tola va to'qimalar (Farg'onada), sun'iy charm va sun'iy jun ishlab chiqaradigan zavodlar quvvati oshirildi.

Hozirda neft zaxiralarining dunyo bo'yicha ko'pchilik qismi oltingugurtli yoki yuqori oltingugurtli hisoblanadi. Ushbu neftlarni qayta ishlash va neft mahsulotlarini yoqilg'i sifatida ishlatish qo'shimcha xarajatlar bilan bog'liq. Neftning oltingugurtli birikmalarining kimyoviy tarkibi bo'yicha o'ta turli-tumandir. Neftlarda erigan holda ham, kolloid holatda ham elementar oltingugurt uchratilishi mumkin. Shu bilan birgalikda erigan vodorod sulfid, merkaptanlar (tiospirtlar), polisulfidlar, siklik sulfidlar (tiofan tipidagi) va tiofen hosilalari kuzatiladi. Bundan tashqari aralash oltingugurt - kislorod saqlovchi birikmalar - sulfonlar, sulfoksidlar va sulfon kislotalarda mavjuddir. Neftning smolali - asfaltli qismida tarkibida bir vaqtda oltingugurt, azot va kislorod atomlari bo'lgan murakkabroq birikmalar ham kuzatiladi. Hozirda neftda 250 dan ortiq oltingugurt saqlovchi birikmalar topilgan. Ularning asosiy ko'pchiligi yengil va o'rta distillat fraksiyalaridan ajratib olingan⁷.

⁷ Turobjonov Sadridin Mahamatdinovich, Azimov Obid Ganiyevich, Obidov Bilol Obidovich. "Kimyoning maxsus boblari" o'quv qo'llanma. Toshkent 2004. 7-36-78 b.

Neftning oltingugurtli birikmalarining asosiy qismi - yuqori molekulyar massa va qaynash haroratiga ega bo`lib, ularning ko`pchiligi (70-90%) mazut va gudron tarkibida kuzatiladi. Oltingugurt miqdori ko`p bo`lgan ayrim neftlarni keyingi jadvalda ko`rish mumkin.

1.3-jadval

Ayrim neftlardagi oltingugurt miqdori

Kon	Oltingugurt miqdori, %	Kon	Oltingugurt miqdori, %
Surahan	0,02-0,08	Romashkin	1,62
Dossor	0,11-0,15	Tyumen (Sibir)	1,5-2,0
Grozniy	0,20-0,25	Bavlin (Tatariston)	1,22-2,45
Maykop	0,18-0,28	Ishimboy	2,5-2,95
Krasnokamsk	0,58-0,96	Stavropol	2,58
Markov (Sibir)	0,46	Arlan	2,79
Saxalin	0,33-1,28	Buguruslan	2,92
Uxta	1,12-1,24	Xau-Dog` (O`zbekiston)	3,22
Tuymazin	1,47	Uch qizil (O`zbekiston)	1,82-6,32

Manba: Foydalanilgan adabiyotlar asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Umuman neft konlari oltingugurtli yoki yuqori oltingugurtli hisoblanib, bundan O`zbekiston kimyo sanoatida keng foydalanilmoqda. Jadvalda ham shuni ko`rish mumkinki o`zbek neftida oltingugurt miqdori boshqa neftlarga qaraganda yuqoriroqdir. Volga - Ural, G`arbiy Sibir, Janubiy O`zbekiston va Qozog`istonning ayrim neftlari tarkibida 1 - 2% (mass.) oltingugurt mavjud. Yuqoridagi natijalarga binoan neftning oltingugurtli birikmalari tarkibini chuqur o`rganish va ularning xossalarini, ularni yo`qotish usullarini va ishlatilishini o`rganish va bilish talab qilinadi.

Kimyo sanoati tarkibida mineral o`g`itlar ishlab chiqarish salmoqli o`rin egallaydi. Shuningdek, qishloq xo`jalik zararkunandalariga qarshi defoliantlar ham ishlab chiqariladi.

Kimyo sanoati sifat jihatdan tabiiy mahsulotlardan ustun turuvchi sun`iy materiallar yaratadi. Bunday materiallar tufayli kishilar mehnati ham , qishloq xo`jaligi xomashyosi ham tejaladi. Masalan, kapron ishlab chiqarish uchun tabiiy

ipak tayyorlashga qaraganda 20 barobar kam mehnat sarf qilinadi. Shuningdek kimyo sanoati tufayli ishlab chiqarishni kombinatlashtirish istiqbollari yaraldi. Chunonchi, ko`mir, neft, gaz singari yoqilg`i xomashyolaridan energiya hosil qilishda ham, kimyo mahsulotlari (benzin, parafin) olishda ham foydalanilishi energetika-kimyo kombinatlari qurishga olib keldi.

Kimyo sanoatining xomashyo bazasi boy va xilma-xil. U turli foydali qazilmalardan, ishlab chiqarish chiqindilaridan yog`och, suv, hatto havodan foydalanadi. Turli xil xomashyolardan foydalanish imkoniyatining cheksizligi kimyo sanoati korxonalarini hamma joyda qurishga imkon beradi. Biroq kimyo korxonalari energiya va suvni ko`p ishlatishi, ayniqsa, tabiatga jiddiy salbiy ta`sir ko`rsatishi sababidan ularni hamma joyda ham qurish maqbul bo`lavermaydi.

Kimyo sanoatining yirik korxonasi – Chirchiq elektrkimyo kombinati 1940-yilda ishga tushgan. Chirchiq elektrkimyo kombinati dastlab havo tarkibidagi azotdan elektr energiyasi vositasida azotli o`g`it ishlab chiqargan. Buxoro viloyatida topilgan tabiiy gaz quvur orqali Chirchiqqa keltirilgach, kombinat gazdan xomashyo o`rnida foydalanadigan bo`ldi. Bu mahsulot ishlab chiqarishning keskin ko`payishi va tannarxning arzonlashishiga olib keldi. Kombinatda azotli o`g`itdan tashqari, magniy xlorit (g`o`za bargini to`kishda qo`llaniladigan kimyoviy modda) hamda plastmassa va sintetik tola olish uchun organik sintez mahsulotlari ishlab chiqarilmoqda⁸.

1.2. Kimyo sanoati tarmoq tarkibi

Mamlakatimiz sanoatida tarmoqlar turli darajadagi mavqeni egallaydi. Sanoat tarmoqlari orasida qishloq xo`jaligi xom ashyosini qayta ishlovchi va agrosanoat majmuiga xizmat ko`rsatuvchi tarmoqlar an'anaviy ravishda yetakchi o`rinda turadi. Bular kimyo sanoati, paxta tozalash, shoyi to`qish, konserva, yog`-moy va boshqa sanoat tarmoqlaridir. Kimyo va neft kimyosi, mashinasozlik,

⁸ Li.Kadirov V., O`rin Hasanov, Nuriddin Musayev "Stanovleniye ximii" v Respublike O`zbekistan, T., 1995.56.b.

elektronika, energetika, qora va rangli metallurgiya, yengil va qurilish materiallari sanoati keyingi yillarda jadal sur'atlarda rivojlanayapti.

Kimyo sanoatiga ixtisoslashgan korxonalar energetik, oltin qazib olish, kimyo sanoati uchun mineral o'g'itlar, organik va noorganik moddalar, sun'iy tolalar, polimer materiallar, kimyo reagentlari, o'simliklarni himoya qiluvchi kimyoviy vositalar ishlab chiqaradi.

Kimyo sanoati — og'ir sanoat tarmoqlaridan biri, xilma-xil kimyoviy mahsulotlar turlari: kon-kimyo xom ashyosi, asosiy kimyo mahsulotlari (ammiak, noorganik kislotalar, ishqorlar, mineral o'g'itlar, soda, xlor va xlorli mahsulotlar, suyultirilgan gazlar va boshqalar), plastmassa va sintetik smolalar, shu jumladan, kaprolaktam, sellyuloza atsetatlari, kimyoviy tola va iplar, plastmassa va shisha-plastiklardan materiallar va buyumlar, lok-bo'yoq materiallari, sintetik bo'yoqlar, kimyoviy reaktivlar, fotokimyo mahsulotlari, maishiy kimyo tovarlari va boshqalarni ishlab chiqaradi.

Kimyo sanoati tarmoq tarkibiga quidagi bir qancha tarmoqlar kiradi. Bular:

- kon-kimyo xom ashyosi(fosforitlar, tabiiy tuz, soda, agrokimyo xom ashyosi, sulfat, kaliy, osh tuzi konlari);
- asosiy kimyo mahsulotlari (ammiak, noorganik kislotalar, ishqorlar, mineral o'g'itlar, soda, xlor va xlorli mahsulotlar, suyultirilgan gazlar va b);
- plastmassa va sintetik smolalar, shisha-plastiklardan materiallar va buyumlar yasash;

- O'simliklarni kimyoviy himoyalash vositalari(defoliant, desikat, gerbitsid, insektitsid, fo'ngitsidlar) ;
- Oltinugurt kislotasi;
- Kimyoviy tola va iplar(atsetat iplar, kaprolaktam , akril tolalari, sellyuloza atsetati);
- lok-bo'yoq materiallari, sintetik bo'yoqlar;
- kimyoviy reaktivlar;

- fotokimyoy mahsulotlari;
- maishiy kimyo tovarlari va boshqa ishlab chiqarish tarmoqlari;

Kimyo sanoatining tarmoqlari ichida *asosiy kimyo mahsulotlari* tarmogʻi asosiy ulushga ega. Respublikada qishloq xoʻjaligi uchun zarur boʻlgan ammosfos, ammiak selitrasi, ammoniy sulfat, superfosfat, karbamid, suyultirilgan ammiak, shuningdek, samarador murakkab azotli va fosforli oʻgʻitlarni ishlab chiqarish yoʻlga qoʻyilgan. "Elektrkimyosanoat" AJ (Chirchiq), Fargʻona "Azot" ishlab chiqarish birlashmasi asosiy turdagi azotli oʻgʻitlar, "Qoʻqon superfosfat zavodi" AJ, Samarqand kimyo zavodi, Olmaliq "Ammofos" AJda ammosfos, oddiy va zamonaviylashgan superfosfat, qumoq ammosfos kabi fosforli oʻgʻitlar ishlab chiqariladi⁹.

Sulfat kislotasi kimyo sanoati tarmoqlari uchun muhim xom ashyodir. Respublikada sulfat kislota ishlab chiqaradigan yirik quvvatlar Olmaliq "Ammofos" AJ, Samarqand kimyo zavodi, Navoiy kon-metallurgiya konbinati, Olmaliq konmetallurgiya konbinatida barpo etilgan¹⁰. Oʻzbekistonda kimyo sanoati mahsulotlarini ishlab chiqaradigan korxonalar soni yildan yilga oshib bormoqda. Kimyo sanoati tarmogʻida ishlab chiqaradigan korxonalar haqida keying jadvalda koʻrishimiz mumkin.

1.4-jadval

Oʻzbekistonda kimyo sanoati tarmoqlarida ishlab chiqarish quvvatlari.

Tarmoqlar	Korxonalar va zavodlar nomi	Tashkil topgan vaqti	Yillik quvvati
1. Mineral oʻgʻitlar -azot	Chirchiq elektrokimyoy kombinati, Fargʻona azotli oʻgʻitlar, Navoiyazot AJ	1940-yil 1962-yil 1964-yil	2.8 mln tonna
-fosforli oʻgʻitlar (fosforit, superfosfat ammosfos, quruq ommoniy)	"Qoʻqon superfosfat zavodi" AJ, Samarqand kimyo zavodi, Olmaliq "Ammofos" AJ	1946-yil 1957-yil 1969-yil	1,3 mln tonna

⁹ Li.Kadirov V., Oʻrin Hasanov, Nuriddin Musayev "Stanovleniye ximii" v Respublike Oʻzbekistan, T., 1995. 56-27.b.

¹⁰ www.kutubxona.tk Partizan_Studio@mail.Ru 01.01.2011

	Qizilqum fosfarit	1998-yil	
-kaliy	Dehqonobod		200ming tonna
2.Kislotalar -Sulfat kislota	Chirchiq elektrokimyo kombinati, Olmaliq "Ammofos" korxonalarini, Navoiy va Olmaliq konmetallurgiya	1940-yil 1969-yil 1958-yil	1 mln tonna
-karbon kislota	Andijon biokimyo z-di Yangiyo`l biokimyo.	1994-yil 1952-yil	4 ming tonna
-kuchsiz azot kislotasi	Chirchiq elektrokimyo kombinati	1940-yil	*
3. O`simliklarni himoya qilishning kimyoviy vositalari - magniy xlorat defolianti	Farg`onaazot	1965-yil	*
- gerbitsidlar va` insektitsidlar	Navoiy "Elektrokimyo zavodi" AJ	1960-yil	*
4. Kimyoviy tolalar va iplar - kaprolaktom	Chirchiq "Elektrokimyo	1940-yil	80 ming t
- atsetat iplar	Farg`ona kimyo tolalar zavodida	1959-yil	
- nitron akril tolalari	Navoiyazot" birlashmasida	1974-yil	40 ming t
- sellyuloza atsetati	Farg`onaazot	1965-yil	42 ming t.
5. Maishiy kimyo mahsulotlari -etil sperti	Andijon biokimyo z-di" AJ "Qo`qonspirt" AJ "Yangiyo`l biokimyo z-di" AJ	1994-yil 1995-yil 1996-yil	915 ming dal 1800 ming dal 915 ming dal
6. Rezinamahsulotlari -shinalar	"O`zbekrezinatexnika" birlashmasi	1992-yil	1,7 mln dona
7.Soda sanoati	Qo`ng`irot soda zavodi	2006- yil	210 ming t.
8. Plasmassa va propilen mahsulotlarini	Ohangaron "Santexlit", "Jizzaxplastmassa" AJ	1972-yil	*

Manba: Foydalanilgan adabiyotlar asosida muallif tomonidan tuzilgan.

* Izoh: malumot berilmagan.

O`zbekiston bugungi kunda kimyo mahsulotlari ishlab chiqash quvvati yuksak bo`lgan ko`pgina korkona va zavodlar barpo etilgan. O`zbekistonda birinchi kon Sho`rsuv oltingugurt koni hisoblanadi. Keying yillarda birin keyin kimyo sanoati korxonalarini barpo bo`la boshladi. Bu korxonalarini 1.4-jadvalda ko`rishimiz mumkin. Mineral o`g`itlar ishlab chiqarish 2011-yil 1,2 mln tonna tashkil etgan bo`lsa(1.7-jadval), mineral o`g`itlar orasida birgina azot ishlab chiqarish sanoat quvvati 2,8 mln tonnani tashkil etadi. Kimyoviy tola va iplar ishlab chiqarish 2011-yilda 16,2 ming tonnani tashkil etgan bo`lsa, bu sanoat

tarmog`ini quvvati 180 ming tonnani tashkil etadi. Bu kimyo tavarlarini hajmini oshirishga qaratilgan bir qancha chora tadbirlar olib borilmoqda. Bu borada Prezidentimiz I.A. Karimovning 2007 yil 12 noyabrda qabul qilingan «Ichki tarmoq va tarmoqlararo sanoat kooperatsiyasini yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to`g`risida»gi farmoni ijrosini ta`minlash doirasida hamda 2010 yil 23 martda imzolangan «2010 yilda sanoat kooperatsiyasi asosida tayyor mahsulotlar, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish Dasturi to`g`risida»gi qarorlarini misol keltirsak mubolag`a bo`lmaydi.

Mineral o`g`itlar ishlab chiqarish bo`yicha yana bir ulkan quvvatlardan «Navoiyazot» OAJ bo`lib, u o`z faoliyatini 1964 yilda mineral o`g`itlar ishlab chiqaruvchi zavod sifatida boshlagan.

Hozirgi vaqtda «Navoiyazot» ochiq aksiyadorlik jamiyati sanoatning turli sohalarida ishlatiladigan 60 dan ortiq tovar mahsulotlarini chiqaradigan O`zbekiston kimyo sohasining eng yirik korxonasi hisoblanadi. «Navoiyazot» OAJ mahsulotlariga talab nafaqat O`zbekistonda, balki yaqin va uzoq xorijda ham mavjuddir.

Rivojlangan infratuzilma va yuqori malakali mutaxassislarning mavjudligi, korxonaga o`tgan asrning 90-yillari og`ir damlariga qaramay sohadagi yetakchilik o`rnini saqlab qolishga va kelgusida rivojlanishiga yordam berdi. «Navoiyazot» OAJ bugungi kunda ko`plab muhim ishlab chiqarish vazifalarini bajara oladigan o`nlab sexlardan iborat bo`lgan yagona sanoat mexanizmi hisoblanadi. Bu korxonani ishlab chiqarish tarmoqlarini 1.5-jadvalda ko`rish mumkin.

1.5-jadval

«Navoiyazot» OAJning ishlab chiqarish tarmoq tarkibi

Ishlab chiqarishlarning nomlanishi	Ishga tushirilgan yili	Faoliyat ko`rsatayotgan quvvati
«Ammiak-I,II» ishlab chiqarishi	1964	yiliga 370 ming tn.
«Ammiak-III» ishlab chiqarishi	1971	yiliga 180 ming tn.

Ammiakli selitra ishlab chiqarishi I-II navbati	1964	yiliga 350 ming tn.
Ammiakli selitra ishlab chiqarishi III navbati	1971	yiliga 600 ming tn.
Azot kislotasi ishlab chiqarishi II navbati	1965	yiliga 390 ming tn.
Azot kislotasi ishlab chiqarishi III navbati	1971	yiliga 480 ming tn.
Organik birikmalar ishlab chiqarishi	1969	10 dan ortiq mahsulot turlari
«Nitron» ishlab chiqarishi	1983	yiliga 23 ming tn.
«Kaustik soda va kam tonnali kimyoviy mahsulot» ishlab chiqarishi	1976	20 dan ortiq mahsulot turlari
Azot-fosforli o`g`it AFO` ni ishlab chiqarishi	2010	yiliga 180 ming tn.
Texnikaviy tiomochevina ishlab chiqarishi	1987	yiliga 1400 ming tn.

Manba: <http://www.navoiyazot.uz/uzb/progress.html>

Korxonada mahsulot sifatini yaxshilash, atrof-muhit muhofazasi, asosiy ishlab chiqarishlarni qayta qurish, innovatsiyalarni tadbiiq qilish, korxonada xodimlarini ijtimoiy himoya qilish, kadrlarni tayyorlash sohasida aniq maqsadga yo`naltirilgan siyosat o`tkazilmoqda. Bunday siyosat ishonchli kelajak garovi deb hisoblasak xato bo`lmaydi. Korxonada tomonidan taklif etilayotgan mahsulotlar assortimenti doimo kengayib bormoqda. Bugunki kunda bu ayollar va bolalar uchun mo`ljallangan yuqori sifatli gigiyenik mahsulotlardir. Ayni paytda «Navoiy Hunan Pulp» mahsulotlari assortimenti quyidagi savdo markalari bilan taqdim etilmoqda: «Pannolino»tagliklari, «Dream Soft» gigiyenik matolari ¹¹.

O`zbekistonda soda sanoatining Markaziy Osiyo mamlakatlarida yagona bo`lgan korxonasi Qo`ng`irot soda zavodi qurilishi 1995 yildan boshlandi (yillik loyiha quvvati 210 ming t soda) va 2004 yilda ishga tushirildi. Mamlakatimiz Prezidenti Vazirlar Mahkamasining 2009 yil yakunlariga bag`ishlangan majlisida Inqirozga qarshi choralar dasturi doirasida mamlakatimizda mahsulot eksport

¹¹ <http://www.navoiyazot.uz/uzb/progress.html>

qiladigan korxonalarni qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish, ularning eksport salohiyatini mustahkamlash muhim ahamiyat kasb etayotganini alohida ta'kidladi. O'tgan yili mazkur korxonada ishlab chiqarilayotgan kalsiylashtirilgan sodaning eksport hajmi rejaga nisbatan qariyb 5 barobarga o'sdi. Joriy yilda bu boradagi reja 30 ming tonnani tashkil etadi va mahsulotlar asosan MDH mamlakatlariga yetkazilib beriladi.

Ichki bozorda Qo'ng'iro't soda zavodining asosiy iste'molchilari «Kvars», «Asl oyna», «Urganchyog'», Buxoro neftni qayta ishlash zavodi, Navoiy kon-metallurgiya kombinati. Korxonalar bugun respublikamizning kalsiylashtirilgan sodaga bo'lgan ehtiyojini to'liq qoplab qolmay, xorijga ham mahsulot chiqarayapmiz.

O'tgan 2009 yilda jami 76 ming tonnadan ko'proq kalsiylashtirilgan soda ishlab chiqarilib, o'sish sur'ati 108,1 foizni tashkil etdi. Joriy yilda esa jamoamiz 90 ming tonna mahsulot ishlab chiqarish uchun mehnat qilyapti.

Prezidentimizning Iqtisodiyotning real sektori korxonalarini qo'llab-quvvatlash, ularning barqaror ishlashini ta'minlash va eksport salohiyatini oshirish dasturi to'g'risidagi Farmoni ijrosini ta'minlash maqsadida korxonada mahsulot tannarxini kamaytirishga e'tibor qaratilmoqda. Unga ko'ra, 2009 yilda ishlab chiqarilgan mahsulot tannarxini o'rtacha 5,1 milliard so'mga kamaytirish kutilgan edi. Amalda esa bu ko'rsatkich 6,5 milliard so'mni tashkil etdi.

Bugungi kunda zavod mahsulotlariga xorijda talab oshib bormoqda. Natijada 2009 yilda 31.2 ming tonna, ya'ni 5,54 million AQSh dollari miqdorida kalsiylashtirilgan soda xorijga eksport qilindi. Ma'lumki, 2009 yilning 20-26 oktyabr kunlarida Toshkent shahrida o'tkazilgan Xalqaro sanoat yarmarkasi va kooperatsiya birjasi doirasida ichki iste'molchilar bilan 23,1 milliard so'mlik, eksport bo'yicha esa qiymati 2,6 million AQSh dollarga teng shartnomalar tuzildigan edi¹².

¹² «O'zbekiston ovozi» muxbiri. Reyimboy Yeshinbetov, 2010.

O`simliklarni himoya qilishning kimyoviy vositalari (defoliant, desikat, gerbitsid, insektitsid, fo`ngitsidlar) Farg`ona "Azot" ishlab chiqarish birlashmasida (1965 y.dan, magniy xlorat defolianti), Navoiy "Elektrokimyo zavodi" AJ (1960 yildan, gerbitsidlar: nitran, kotoraya, bronotak, insektitsidlar: fozalon, treflan va b.) ishlab chiqariladi. Respublika qishloq xo`jaligida o`simliklarni kasallik va zararkundalardan kimyoviy himoya qilishda ko`llaniladigan oltingugurt kukuni Sho`rsuv kon-kimyo korxonasida hamda Muborak va Sho`rtan gaz komplekslarida ishlab chiqariladi.

Kimyoviy tolalar va iplar xilma-xil xalq iste`moli tovarlari ishlab chiqarishda keng qo`llaniladi. Chirchiq "Elektrkimyosanoat" AJda kaprolaktam (1980 yildan, yillik quvvati 70 ming t), Farg`ona kimyoviy tolalar zavodi (1959)da atsetat iplar, "Navoiyazot" AJda akril tolalari (1974 yildan; yillik quvvati 23 ming t dan ko`proq), Farg`ona "Azot" ishlab chiqarish birlashmasida sellyuloza atsetati (yillik quvvati 42 ming t) ishlab chiqariladi. Farg`ona furan birikmalari zavodi (1946)da sellyuloza mustaqilligini ta`minlash bo`yicha paxta lintidan sellyuloza ishkab chiqarishga ixtisoslashgan quvvatlar barpo etilgan. Farg`ona kimyoviy tolalar zavoidida kaprolaktamni qayta ishlab, kapron va iplar tayyorlashga imkon beradigan quvvatlar bor¹³.

O`zbekistonda kimyo sanoati yuksak sur`atlarda rivojlanmoqda. Mamlakatimizda tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, bu boradagi ilmiy tadqiqotlar ko`lamini kengaytirishga alohida e`tibor qaratilayotir. Buning natijasida foydali qazilma maydonlari soni va turi tobora ko`payib bormoqda.

O`zbekistonda sanoat ahamiyatiga ega mineral xomashyo bazasini rivojlantirish, rudali hududlarni tadqiq qilish, zaxiralarni aniqlash va geologiya-qidiruv ishlariga zamonaviy texnologiyalarni joriy etish ustuvor vazifalardan etib belgilangan. Bu, o`z navbatida, soha ilm-fani va olimlari zimmasidagi mas`uliyatni

¹³Li.Kadirov V., O`rin Hasanov, Nuriddin Musayev "Stanovleniye ximii" v Respublike O`zbekistan, T., 1995. 56-27.b.

yanada oshiradi. Shu bois mazkur mintaqaviy konferensiya dunyoning ko'plab mamlakatlaridan kelgan olim va mutaxassislar, ekspertlarning bu boradagi izlanishlari, kashfiyotlari va xulosalarini o'rganishda muhim ahamiyatga ega.

Kimyo sanoati ogir sanoatning asosiy tarmog'i bo'lib, O'zbekiston iqtisodiyotida va xalk xo'jaligida ahamiyati kattadir.

Xom ashyoning ko'pligi yetakchi kimyo sanoati korxonalarini – Olmaliq “Ammofos” ishlab chiqarish birlashmasi, Chirchiq elektrokimyo ishlab chiqarish birlashmasi, Navoiy “Azot” ishlab chiqarish birlashmasi, Farg'ona sun'iy tola zavodi, Namangan kimyo zavodi, Toshkent lak-buyoq materiallari va plastmassalarni ishlab chiqaradigan va qator boshqa kimyo korxonalarini vujudga keltirish imkonini yaratdi. Hozirda kimyo sanoati rivojlangan hududlar — Olmaliq, Chirchiq, Farg'ona, Qo'qon, Navoiy kabi yirik kimyo sanoati markazlari ishlab turibdi¹⁴.

Ayni paytda tarmoq korxonalarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash borasidagi ishlar davom etmoqda. Jumladan, hozirgi kunda “Ammofos-Maksam” ochiq aksiyadorlik jamiyatida oltingugurt kislotasi sexini rekonstruksiya qilish, “Navoiyazot”da atsetilen asosida polivinilxlorid, xlor va kaustik soda ishlab chiqarish loyihalari kompleks ravishda amalga oshirilmoqda.

O'tgan vaqt mobaynida kimyo sanoati rivoji yo'lida amalga oshirilgan keng ko'lamli ishlar natijasida, joriy yilning o'tgan to'qqiz oyida tizim korxonalari tomonidan 843,5 ming tonna mineral, azotli va fosforli o'g'itlar ishlab chiqarildi. Bu 2009 yilning shu davriga nisbatan ancha ko'p demakdir.¹⁵ Shu asnoda O'zbekistonda sanoat tarmoqlarida 5yil mobaynidagi tarkibiy o'zgarishlarni keying jadvalda ko'rishimiz mumkin.

1.6-jadval

¹⁴ Prezidentimiz I.A.Karimovning "2007-2011 yillar mobaynida Kimyo sanoati korxonalarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash dasturi to'g'risida"gi qarori. 2007.

¹⁵ <http://uza.uz/uz/business/15179/> 15.12.2010

**O`zbekistonda sanoat tarmoqlarida tarkibiy o`zgarishining xususiyatlari
(mlrd so`mda)**

Sanoat tarmoqlar	2005	2009	2010	2011	2011 yil 2005 yilga nisbatan %da	2011yilda jami sanoat mahsulotida sanoat tarmoqlari ulushi %da	2011yil YaIMda tarmoqlar ulushi %da
Yalpi ichki mahsulot	15210,4	48097,0	61831,2	77750,6	511,1		100
Jami sanoat mahsulotlari	10913,4	28009,3	33580,5	41655,9	381,6	100	24,0
shu jumladan:							
Elektiroenergetika	1188,2	2484,0	2822,3	3349,3	281,8	8,0	4,3
yonilg`i energetika	1775,8	6008,9	6440,1	7298,0	410,9	17,5	9,3
qora metallurgiya	253,2	684,1	823,0	1084,0	428,1	2,6	1,3
rangli metallurgiya	1845,0	3265,2	3783,9	4324,7	234,4	10,3	5,5
kimyo va neft-kimyo sanoati	569,5	1326,2	1702,1	2283,9	401,0	5,4	2,9
mashinasozlik va metalni qayta ishlash	1405,6	4541,8	5432,6	6714,0	477,6	16,1	8,3
o`rmonchilik, sellyuloza va qog`oz sanoati	94,9	296,7	360,6	447,1	471,1	1,0	0,5
qurulish materiallari	422,4	1325,5	1674,8	2188,6	518,1	5,2	2,8
yengil sanoat	1845,1	3408,4	4489,1	5629,6	305,1	13,5	7,2
oziq-avqat sanoati	913,5	3135,8	4231,9	5814,1	632,6	13,9	7,4

Manba: O`zbekiston statistika qo`mitasi ma`lumotlari, 2012

O`zbekistonda sanoat mahsulotlari hajmi va tarkibiy tuzulishi yildan yilga ijobiy o`zgarishda. Buni biz 1.6-jadvalda ko`rishimiz mumkin. 2005 yildan 2011 yilgacha sanoat mahsulotlari hajmi 381,6% ga o`sgan, YaIM dagi ulushi 2000 yilda 14,3%ni tashkil etgan bo`lsa, 2011 yilda 24%ga yetdi. Sanoat tarmoqlarida shu 5 yilichida eng yuqori suratlarda o`sgan tarmoqlar: oziq-avqat sanoati 632,6%, qurulish materiallari 518,1%, yonilg`i energetika 410,9%, qora metallurgiya %, mashinasozlik va metalni qayta ishlash 477,6%, kimyo va neft-kimyo sanoati 401,0% o`shish kuzatilgan. Jami sanoat mahsulotlarida sanoat tarmoqlarida ulushi yuqori tarmoqlar: yonilg`i energetika 17,5%, mashinasozlik va metalni qayta ishlash 16,1%, oziq-avqat sanoati 13,9%, yengil sanoat 13,5%, rangli metallurgiya 10,3%, kimyo va neft-kimyo sanoati 5,4% ulushga ega.

Bu kabi samaraga erishishda davlatimiz rahbarining 2009 yil 11 martda qabul qilingan “Kimyo sanoati korxonalarini qurilishini jadallashtirish va yangi turdagi

kimyo mahsulotlari ishlab chiqarishni o`zlashtirish bo`yicha chora-tadbirlar Dasturi to`g`risida”gi qaroriga muvofiq berilgan imtiyozlar mahsulot turini kengaytirishda muhim omil bo`lmoqda. Tarmoq korxonalarida yangi turdagi mahsulotlar ishlab chiqarish yo`lga qo`yilgani, 2010 yilning to`qqiz oyida mamlakatimiz qishloq xo`jaligi sohasiga ular tomonidan ko`plab miqdorda fosfatlashtirilgan ammiak selitrasi, A markali metanol, ammiak ishlab chiqarish uchun katalizatorlar, karbamid-ammiak aralashmasi, natriy nitrati, trinatriyfosfat va karboksimetilselluloza kabi keng turdagi kimyo mahsulotlari yetkazib berilgani buning dalilidir.

Bularning barchasi mamlakatimiz iqtisodiyotining muhim tarmog`i – kimyo sanoatini yanada rivojlantirish, ichki va tashqi bozorda xaridorgir yangi mahsulot turlarini ishlab chiqarishni mahalliyashtirish, energiya sarfini kamaytirish, korxonalarda qo`shimcha ish o`rinlari yaratish, qishloq xo`jaligi mahsulotlari yetishtiruvchilarning mineral o`g`itlarga bo`lgan talabini qondirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlar berayotgan yuksak samaralardandir.

Tizim korxonalarida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning sifati, raqobatbardoshligi yildan-yilga oshib borayotgani ichki va tashqi bozorda unga bo`lgan talabning ortishiga, jahon kimyo bozorida O`zbekiston mavqeini yanada mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Joriy yil yurtimizda kimyo mahsulotlarini eksport qilish hajmi belgilangan prognozga nisbatan 100,6 foizni tashkil qildi. Mahsulot ishlab chiqarish hajmining ortishi, yangi quvvatlarning ishga tushirilishi hisobiga 2000 ga yaqin ish o`rni yaratildi. Uning 400dan ortig`i kasanachilikni rivojlantirish hisobiga ochildi.

Bugungi kunda kimyo sanoati tizimidagi korxonalarda mineral o`g`itlar, sun`iy tolalar, polimer materiallar, energetika, kimyo, tog`-kon sanoati uchun kimyoviy reagentlar, o`simliklarni himoya qilish vositalari, defoliantlar, chigit ekishda ishlatiladigan plyonkalar singari 150 turdan ko`proq mahsulot ishlab chiqarilmoqda. Bunda mamlakatimizdagi mavjud xomashyo resurslari va jahon bozorida mineral o`g`itlarga bo`lgan talabning o`zgarishiga jiddiy e`tibor

qaratilyapti.¹⁶O`zbekiston kimyo sanoati mahsulotlari, ayniqsa mineral o`g`tlar amiyak, kimyoviy tola va iplar, kaliy, oltingugurt kislotasi, azot, fosfor, natriy kabi mahsulotlar ishlab chiqarish sezilarli ravishda oshib bormoqda. Buni biz 1.7-jadvalda ko`rishimiz mumkin.

1.7-jadval

O`zbekistonda kimyo sanoati mahsulotlari ishlab chiqarish dinamikasi (ming t)

Manba: O`zbekiston statistika qo`mitasi ma'lumotlari, 2012

-* Izoh: O`zbekiston statistika qo`mitasi ma'lumotlari yo`q.

O`zbekistonda kimyo sanoati mahsulotlari ishlab chiqarish yildan yilga oshib bormoqda. Masalan 1.7-jadvalda 5 yil mobaynida kimyoviy tola va iplar ishlab chiqarish (3 barobarga), oltingugurt kislotasi (1,5 barobarga), mineral o`g`itlar (1,3 barobarga), kalsiylashtirilgan soda (2 barobarga) ortganini ko`rashimiz mumkin. Kimyo mahsulotlari ichida sirka kislotasi hajmi 2005 yildan 2011 yilgacha 617,3 %, kimyoviy tola va iplar 305,5 %, oltingugurt kislotasi 160,6

Mahsulotlar	2005	2006	2007	2008	2009	2010	2011	2011yilda 2005yilga nisbatan %da
Suniy ammiak	1064,9	1141	1022,1	1280,4	1265,3	1343,9	1294,3	121,5
Mineral o`g`tlar	866,2	940,9	1224	1064,9	1073,2	1134,6	1171,7	135,2
Karbamid	370,4	422,4	430,4	460,7	512,8	-*	-*	138,4
O`simliklarni kimyoviy himoyalash vositalari	2,1	1,2	1,9	1,7	4,1	3,3	-*	157,1
Oltingugurt kislotasi	740,5	833,1	976,9	924,4	954,6	1189,7	-*	160,6
Kimyoviy tola va iplar	5,4	11,5	15,7	12,6	13,5	15,9	16,5	305,5
Sirka kislotasi	6,9	8,7	9,6	9,3	10,2	-*	42,6	617,3

%, o`simliklarni kimyoviy himoyalash vositalari 157,1 % mineral o`g`itlar 135,2 %

¹⁶ O`zbekiston Davlat statistika qo`mitasi Axborot xizmati ma'lumotlari 2010 yil.

o`lish kuzatildi. Bundan ko`rinib turibdiki O`zbekistonda kimyo sanoati yildan yilga rivojlanib bormoqda.

O`zbekiston kimyo sanoati mahsulotlari yildan yilga o`shib bormoqda. Kimyo sanoati mahsulotlari orasida eng yuqori suratlarda bilan o`shib borayotgan kalsiyashtirilgan soda 2005 yildan 2011 yilgacha o`rtacha 25%dan o`shib bordi. Keying o`rinlarda sirka kislotasi o`rtacha 20%, mineral o`g`itlar 8%, karbamid 12% o`shish kuzatilgan. Kimyo mahsulotlari ichida kimyoviy tola va iplar o`shishi 2005 -2008 yillarda mos ravishda -40,8,-21,0% ga kamaygan, albatta bu salbiy holat. O`simliklarni kimyoviy himoyalash vositalari ha 2005-2007 yillarda mos ravishda -40,6%, -14,2% ga kamaygani achinarli holat¹⁷.

Karbamid yordamida deparafinizatsiya jarayoni sovuqqa chidamli qishki nav yoqilg`ularini, transformator moylarini olishda, hamda oqsil – vitaminli konsentratlar (OVK), sintetik yog` kislotalar va spirtlar, yuvish vositalari ishlab chiqarish uchun xomashyo bo`lgan suyuq normal parafinlar olishda qo`llaniladi.

Kaliy o`g`itlar va vinilxloridlarni ishlab chiqarishni tashkil etish, shuningdek respublikada ishlab chiqariladigan azot va fosfor o`g`itlar, metanol, karbamid, ammiak selitra, xlorat natriy, melamin singari boshqa mahsulotlar hajmini oshirish uchun kimyo sanoatining investitsiyalarga bo`lgan ehtiyoji taxminan 800 mln. AQSh dollarini tashkil etadi.

2012 yi 30 iyul kuni Toshkent shahrida bo`lib o`tgan “O`zbekiston-Eron biznes-forumi” davomida “O`zbekiston Respublikasi investitsiyalar muhiti va xorijiydan investitsiyalarni jalb etish istiqbollari” deb nomlangan ma`ruzasida “O`zinfoinvest” agentligi direktori Baxtiyor Ermatov shunday xulosaga keldi.

“Qo`shma investitsiya loyihalarini amalga oshirish yuqori iste`mol xususiyatlariga ega bo`lgan kimyo mahsulotlarining yangi turlarini o`zlashtirish uchun poydevor qo`yadi”, – deb qayd etdi Baxtiyor Ermatov¹⁸.

¹⁷ O`zbekiston Davlat statistika qo`mitasi Axborot xizmati malumotlari 2012 yil

¹⁸ <http://uza.uz/uz/business/19626/> · 16.11.2011 21:12

II BOB. O`ZBEKISTONDA KIMYO SANOATI RIVOJLANISH DINAMIKASI VA ISTIQBOLLARI

2.1. O`zbekiston iqtisodiyotida kimyo sanoatining o`rni

Jahonda kimyo sanoatning mustaqil sanoat tarmog'iga aylanishi sanoat to'ntarishi bilan bog'liq. Sulfat kislota ishlab chiqarish bo'yicha dastlabki zavodlar 1740 yilda Buyuk Britaniyada (Richmond), 1766 y.da Fransiyada (Ruan), 1805

yilda Rossiyada (Moskva gubernyasi), 1810 yilda Germaniyada (Leypsig yaqinida) barpo etilgan.

To`qimachilik va shisha-oyna sanoatining rivojlanishi bilan soda ishlab chiqaradigan zavodlar qurildi. Bunday korxonalar soda zavodlari Fransiyada 1793 yilda (Parij yaqinida), Buyuk Britaniyada 1823 yilda (Liverpul), Germaniyada 1843 yilda (Elba bo`yidagi Shyonebek shahrida), Rossiyada 1864 yilda (Barnaul)da qurildi. XIX asr o`rtalaridan Buyuk Britaniya (1842), Germaniya (1867), Rossiya (1892)da sun`iy o`gitlar ishlab chiqaradigan zavodlar ishlay boshladi. AQShda kimyo sanoari Yevropa mamlakatlariga nisbatan kechroq paydo bo`ldi, lekin 1913 yilga kelib kimyoviy mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi bo`yicha jahonda 1-o`ringa chiqib oldi.

Chet mamlakatlardan AQSH, Yaponiya, GFR, Fransiya, Buyuk Britaniya va Italiya, Rossiya kimyoviy mahsulotlar ishlab chiqarish bo`yicha yetakchi o`rinlarda turadi. Jahon bo`yicha kimyo sanoati mahsulotlari ishlab chiqarishning 3/4 qismi shu mamlakatlar hissasiga to`g`ri keladi. 1960 yillardan boshlab Yaponiya va Germaniyada kimyo sanoati jadal rivojlandi.

O`zbekistonda tegishli xom ashyo manbalari bo`lishiga qaramay XX asrning 30-yillarigacha kimyo sanoati deyarli yo`q edi. 1910-yillarda ohak kuydirish, o`simlik bo`yog`i olish, oltingugurt ishlab chiqarish, ishqoriy moddalar tayyorlash, sovungarlik bilan shug`ullangan bir qancha kichik korxonalar (12 sovun zavodi, neftni haydash zavodi, 2 bo`yoq fabrikasi) bo`lgan.

Zamonaviy kimyo sanoatining shakllanishi 1932 yil qadimdan oltingugurt qazib olingan Sho`rsuv oltingugurt koni (Farg`ona vodiysi)ning ishga tushirilishi bilan boshlandi. Bu korxonada sobiq SSSRda ishlab chiqariladigan oltingugurtning 57% ini bergan va Ittifoqning oltingugurt mustaqilligini ta`minlashda muhim rol o`ynadi. Kimyo sanoatining eng yirik korxonasi Chirchiq elektr kimyo kanbinati 1940 yil oktabrdan mahsulot bera boshladi. Shu yili 608,9 t ammiak, 961,7 t kuchsiz azot kislotasi va 930 t ammiak selitrasi ishlab chiqarildi. 1940yilda respublikaning jami sanoat mahsuloti hajmida Kimyo sanoati hissasi 0,8% ni,

kimyo sanoatida band boʻlgan ishchilar soni sanoat ishchilarining 1% ni tashkil etgan, sanoat ishlab chiqarish fondining 7,4% kimyo sanoati hissasiga toʻgʻri kelgan.

Respublika sanoati mahsulotlari umumiy hajmida kimyo sanoati (neft kimyosi sanoati bilan birga) hissasi 2000-yil 6,1 % ni tashkil etdi. Shu yili 832 ming t mineral oʻgʻitlar (100% ozik, modda hisobida), 15 ming t sintetik smolalar va plastik massalar, 14,7 ming t kimyoviy tola va iplar, 985 ming t sintetik ammiak, 823,4 ming t sulfat kislotasi, 287 ming t oltingugurt va boshqa mahsulotlar ishlab chiqarildi.

1991 yilda respublika kimyo sanoati korxonalarini negizida "Oʻz kimyo sanoati" konserni tashkil etildi. 1994 yil martidan konsern "Oʻz kimyo sanoati" uyushmasiga aylantirildi. 2001 yil martida uyushma tugatilib, uning asosida "Oʻz kimyo sanoati" davlat-aktsiyadorlik kompaniyasi tashkil qilindi va 2004 yil yanvarida kompaniya tarkibiy jihatdan qayta shakllantirildi. Kompaniya tarkibiga 29 ta korxonasi va tashkilotlari kiradi. Shu jumladan, 7 ta ochiq aktsiyadorlik jamiyati, 3 ta qoʻshma korxonasi-aktsiyadorlik jamiyati va 3 ta davlat tasarrufidagi ishlab chiqarish korxonalarini; 13 ta "Qishloq xoʻjalik kimyo" xududiy aktsiyadorlik jamiyatlari, 2 ta ilmiy-tadqiqot va loyiha inshootlari, 1 ta mas'uliyati cheklangan jamiyat bor. Kimyo sanoati sohasida loyiha ishlarini uyushma tarkibiga kiradigan "Oʻz kimyo sanoati loyiha" aktsiyadorlik jamiyati (Chirchiq shaxri), Toshkent kimyoviy texnologiya davlat unitar korxonasi olib boradi.¹⁹

Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001 yil 13- martdagi "Kimyo sanoatini boshqarish tuzilmasini takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida"gi qarori da Oʻzbekiston Respublika hukumati tomonidan Oʻzbekiston kimyo sanoati korxonalarini yalpi rivojlantirishning 23ta investitsiya loyihalaridan iborat dasturi ishlab chiqildi va maʼqullanib, kimyo sanoati korxonalarini rivojlantirish va qoʻllab quvvatlash jamgʻarmasi tashkil etildi. Bugungi kunda "Oʻz kimyo sanoati" kompaniyasi tarkibida 34 ta korxonasi, shu jumladan, 4 qoʻshma

¹⁹ <http://uza.uz/uz/business/12204/> · 29.04.2010

korxonalar ishlaydi (shulardan 22 tasi ochiq aksiyadorlik jamiyatlari (AJ)ga aylantirilgan) (2002). Ularning 20 dan ko'prog'i yirik zamonaviy korxonalaridir.

“O'zbek kimyosanoati” davlat aksiyadorlik kompaniyasi tomonidan amalga oshiriladigan barcha ishlar, jumladan, ilmiy tadqiqotlar, kimyoviy mahsulotlarni ishlab chiqarish, tarqatish va ularni yetkazib berish bilan bog'liq barcha choratadbirlar, mamlakatimiz kimyo tarmog'ini rivojlantirish bo'yicha kompleks siyosatni yuritishga xizmat qiladi. Kompaniyaning ishlab chiqarish quvvati O'zbekistonning kimyo mahsulotlariga bo'lgan ichki talabini to'la ta'minlash hamda doimiy asosda ularni eksport qilish imkonini beradi. Faqat o'tgan 2011 yilning o'zida “O'zbek kimyosanoati” davlat aksiyadorlik kompaniyasi korxonalaridan 1 560,7 milliard so'mlik mahsulot ishlab chiqarilgan bo'lib, shundan 103 milliard so'mlikdan ziyodi xalq iste'moli mollaridir. Bu oldingi ishlab chiqarish sur'atiga nisbatan o'sish 142 foizni tashkil etganidan dalolat beradi. Tarmoq korxonalarida amalga oshirilayotgan modernizatsiyalash, texnik va texnologik yangilash ishlari shunday yuqori ko'rsatkichlarga erishish imkonini berayotir. Xususan, “Maksam-Chirchiq” ochiq aksiyadorlik jamiyatida ishlab chiqarishni modernizatsiyalash va texnik qayta jihozlash hisobiga yiliga 270 ming tonnagacha karbamid ishlab chiqarishga erishildi. Dehqonobod kaliy o'g'itlari zavodining mavjud ishlab chiqarish quvvati 20 ming tonnaga kengaytirildi. Kompaniya tomonidan yangi mahsulot turlari, ayniqsa, mamlakatimiz iqtisodiyotining ko'plab tarmoqlari uchun zarur mahsulotlarni o'zlashtirish bo'yicha ham ulkan ishlar amalga oshirilmoqda. “Navoiyazot” ochiq aksiyadorlik jamiyatida “Uz-COR silicon” yangi qo'shma korxonasi bunyod etildi. Mazkur korxonada respublikamiz elektr texnika sanoatini rivojlanirish hamda muqobil energiya manbalari uskunalarni ishlab chiqarishda foydalaniladigan texnik kremniy ishlab chiqariladi. Hozirgacha bu yerda 800 tonna texnik kremniy ishlab chiqarildi, ishlab chiqarish quvvatlarini oshirish ishlari davom ettirilmoqda.

Hozirgi kunda kompaniya korxonalarida mineral o'g'itlar, sun'iy tolalar, polimer materiallar, energetika, kimyo, tog'-kon sanoati uchun zarur bo'lgan

kimyoviy reagentlar, o`simliklarni himoyalovchi vositalar, defoliantlar, paxta ekishda qo`llaniladigan plyonkalar ishlab chiqarilmoqda. Bunda mamlakatimizdagi mavjud xomashyo resurslari va jahon bozorida mineral o`g`itlarga bo`lgan o`zgaruvchan talabga jiddiy e`tibor qaratilmoqda.

Kimyo sanoatini rivojlantirish borasida amalga oshirilgan keng ko`lamli ishlar samarasida o`tgan yili kompaniya korxonalari tomonidan bir million 200 ming tonnadan ziyod mineral, azot, fosfor va kaliy o`g`itlari ishlab chiqarildi. Bu 2011-yilning shu davridagiga nisbatan ancha ko`pdir²⁰.

O`zbekistonda kimyo sanoati rivojlanishiga aks tasir ko`rsatuvchi omillar ham mavjud bo`lib, ularning ta`sirini kamaytirish yoki bartaraf etish sanoat taraqqiyoti sur`atlarini oshiradi. Ularga quyidagilarni kiritish mumkin:

- kimyo sanoati korxonalari texnologiyalarni eskirganligi;
- aksariyat kimyo korxonalari inson organizmiga zarar yetkazishining yuqoriligi;
- xususiy sektor moliyaviy, investision va ilmiy-texnik salohiyatining yirik kimyo sanoat loyihalarini amalga oshirish uchun yetarli emasligi;
- aksariyat qayta ishlash korxonalari texnik va texnologik ko`rsatkichlarining pastligi;
- bozor infratuzilmasining kimyo sanoatni jadal rivojlantirish talablariga mos rivojlanmaganligi;
- milliy iqtisodiyotning jahon xo`jaligi tizimiga sust integratsiyalashganligi va xalqaro bozordagi keskin raqobat;
- mamlakatning geografik jihatdan anklav joylashganligi, rivojlangan bozorlardan uzoqligi, dengiz yo`llariga chiqish imkoniyatlari va shart-sharoitlarining torligi;
- ilmiy tadqiqotlar va tajriba-konstruktorlik ishlarini amalga oshirish imkoniyatini beruvchi intellektual salohiyatning yetishmasligi;

²⁰ O`zA, Roman Bondarchuk, 01.02.2012. Jamiyat ijtimoiy-siyosiy gazetasi © 2012.5-soni

Bu kabi omillarni tasirini kamaytirish va bartaraf etish maqsadida, Prezidentimiz I.A. Karimov rahnamoligida mamlakatimizda kimyo sanoatini izchil rivojlantirish, korxonalar quvvatidan samarali foydalanish, eksportga yo`naltirilgan mahsulotlar ishlab chiqarishni ko`paytirishga alohida e`tibor qaratilmoqda. "O`zkimyosanoat" davlat aksiyadorlik kompaniyasi O`zbekiston Respublikasi kimyo korxonalarini birlashtiruvchi yaxlit tuzilmadir. U kimyo sanoati korxonalarini rivojlantirish bo`yicha ishlab chiqarish, innovatsion va marketing dasturlarini ishlab chiqadi va amalga oshiradi, shu orqali butun tarmoqni barqaror rivojlantirishga shart-sharoit va zamin yaratadi.

Toshkent shahrida 2012yil 3 aprel kuni "Mineral o`g`itlar va ularga oid sohalar xalqaro bozorining bugungi ahvoli va rivojlanish tendensiyalari" mavzuidagi mintaqaviy konferensiya boshlandi. Mazkur anjumanda o`ttiz mamlakatdan yuzdan ziyod olim va mutaxassislar, ekspertlar ishtirok etmoqda. Ular O`zbekistonning jahon hamjamiyatida o`z o`rnini egallab borayotganini va kimyo sanoatiga qaratilayotgan etiborni yuksak hisoblashdi. Forum ishtirokchilari O`zbekistonning jivojlanishi haqida iliq fikrlar bildirishdi. Forum ishtirokchilarining ayrimlarining fikrlari:

Lyuk Man, Mineral o`g`itlar ishlab chiqaruvchilar xalqaro uyushmasi (IFA) bosh direktori (Fransiya): Mazkur yirik konferensiya Markaziy Osiyo mamlakatlari orasida O`zbekistonda o`tkazilayotgani katta ahamiyatga ega. Mamlakatingiz Markaziy Osiyoda muhim o`ringa ega va dunyoning jadal rivojlanayotgan davlatlari qatoridan mustahkam joy olgan. O`zbekistonda sanoatning barcha sohalarini taraqqiy ettirish, atrof-muhitni muhofaza qilish borasida olib borilayotgan izchil ishlar berayotgan yuksak samaralar tahsinga loyiq. O`zbekiston har tomonlama istiqboli porloq davlat. Mamlakatingiz tabiiy resurslarga boy. Ulardan oqilona foydalanish borasida amalga oshirilayotgan keng ko`lamli ishlar, qator loyihalar diqqatga sazovordir.

1927 yilda tashkil etilgan uyushmamizga 86 mamlakatning besh yuzdan ziyod tashkiloti a`zodir. Uyushma mineral o`g`itlarning barcha turlarini, xomashyo

ishlab chiqarish va yetkazib berish, agrokimyoviy tadqiqotlar olib borish, ushbu yo`nalishda mutaxassislar tayyorlash bilan shug`ullanadi. Mazkur mintaqaviy anjuman ishtirokchilarga jahon kimyo sanoati sohasidagi so`nggi tendensiyalar, yangiliklar, amalga oshirilayotgan qo`shma loyihalar bilan tanishish, o`zaro fikr va tajriba almashish imkonini beradi.

Ki Minh Tran, “Petrovietnam Fertilizer & Chemicals” korporatsiyasi bosh direktorining o`rinbosari (Vyetnam): O`zbekistonda kimyo sanoati yuksak sur`atlarda rivojlanmoqda. Mamlakatingizda tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, bu boradagi ilmiy tadqiqotlar ko`lamini kengaytirishga alohida e`tibor qaratilmoqda. Buning natijasida foydali qazilma maydonlari soni va turi tobora ko`payib bormoqda.

O`zbekistonda sanoat ahamiyatiga ega mineral xomashyo bazasini rivojlantirish, rudali hududlarni tadqiq qilish, zaxiralarni aniqlash va geologiya-qidiruv ishlariga zamonaviy texnologiyalarni joriy etish ustuvor vazifalardan etib belgilangan. Bu, o`z navbatida, soha ilm-fani va olimlari zimmasidagi mas`uliyatni yanada oshiradi. Shu bois mazkur mintaqaviy konferensiya dunyoning ko`plab mamlakatlaridan kelgan olim va mutaxassislar, ekspertlarning bu boradagi izlanishlari, kashfiyotlari va xulosalarini o`rganishda muhim ahamiyatga ega.

Ahmad Monem Al Bestaviy, “Qatar Fertilizer” kompaniyasi departamenti rahbari (Qatar): Qirq uch yildan buyon faoliyat yuritib kelayotgan kompaniyamiz ammiak va karbamid ishlab chiqarish bilan shug`ullanadi. Mineral o`g`itlar orasida asosiy mahsulot bo`lgan ammiak ishlab chiqarishni ko`paytirish dunyo kimyo tarmog`ining yangi marralarni zabt etishida muhim omil bo`lib xizmat qiladi. Tashrifimiz doirasida “O`zkimyosanoat” faoliyati bilan yaqindan tanishish imkoniga ega bo`lganimdan mamnunman. Mazkur kompaniyaning sarmoyalarni jalb qilish bo`yicha olib borayotgan faoliyati diqqatga sazovor.

Abdulrahmon Javohiriy, “Gulf Petrochemical Industries” kompaniyasi prezidenti (Bahrayn): O`zbekistondek go`zal va betakror mamlakatda bunday yirik anjumanning o`tkazilayotgani juda katta ahamiyatga ega. Yuksak saviyada tashkil

etilgan ushbu konferensiyada o`nlab mamlakatlardan ekspertlar, olim va mutaxassislar ishtirok etayotgani mineral o`g`itlar ishlab chiqarish bo`yicha jahon tajribasini o`rganish, yangiliklar va o`zgarishlardan xabardor bo`lish, bu borada O`zbekistonda amalga oshirilayotgan izchil islohotlar va qo`lga kiritilayotgan yutuqlarni o`rganish imkonini bermoqda.

O`zbekiston Markaziy Osiyodagi eng muhim va yetakchi, tabiiy resurslarga boy mamlakat. Bu yerda yuzlab turdagi mineral o`g`itlar ishlab chiqariladi. Mamlakatingiz bu borada juda katta salohiyatga ega. Bu yerga katta miqdorda sarmoya kiritishga qiziqish bildirayotganlar soni ham tobora ko`payib boramoqda.

Lina Ristimaki xonim, “Yara Suomi Oy” kompaniyasi bosh agronomi (Finlyandiya): O`zbekistonda kimyo sanoati yuksak sur`at bilan rivojlanmoqda, sohada ko`plab loyihalar amalga oshirilmoqda, turli mineral o`g`itlar, sun`iy tolalar va boshqa ko`plab turdagi mahsulotlar ishlab chiqarilib, eksport qilinmoqda. Mazkur sohaga katta miqdorda sarmoya kiritilayotgani mamlakatingiz kimyo sanoatining yanada taraqqiy etishiga xizmat qiladi²¹.

O`zbekistonda kimyo sanoatini barqaror rivojlantirish, ishlab chiqarish quvvatlaridan samarali foydalanish, energiyani tejaydigan hamda ekologik toza texnologiyalarni joriy etish, eksportga mo`ljallangan va import o`rnini bosadigan raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni ko`paytirishga alohida e`tibor qaratilayotgani o`zining yuksak samaralarini bermoqda.

Bu fikrimizni davomi sifatida O`zbekistonda kimyo sanoati mahsulotlari hajmini va jami sanoat mahsulotdagi ulushini va 2005-2011 yillar davomida o`zgarishini 2.1-jadvalda ko`rishimiz mumkin.

2.1-jadval

O`zbekistonda kimyosanoati mahsulotlarini jami sanoat mahsulotdagi ulushi va o`sishi dinamikasi.

²¹ <http://uza.uz/uz/society/21530/> · 13.04.2012 12:46

Yillar	Jami sanoat mahsulotlari		Kimyo va neft-kimyo mahsulotlari		Jami sanoat mahsulotlarida kimyo va neft-kimyo mahsulotlari ulushi	
	Hajmi mlrd so`mda	O`tgan yilga nisbatan o`shish surati %da	Hajmi mlrd so`mda	O`tgan yilga nisbatan o`shish surati %da	Ulushi %da	O`tgan yilga nisbatan o`shish surati %da
2005	10913,4	107,3	569,5	109,6	5,2	96,2
2006	14521,1	110,8	714,6	119,6	4,9	93,9
2007	18314,7	112,1	887,6	118,4	4,8	98,0
2008	23679,0	112,7	1186,8	108,2	5,0	104,1
2009	28009,3	109,0	1326,2	111,0	4,7	93,7
2010	33580,5	108,3	1702,1	115,4	5,1	107,9
2011	41655,9	106,3	2283,9	107,9	5,5	107,3

Manba: O`zbekiston Statistika malumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan

O`zbekistonda kimyo sanoati mahsulotlari jami sanoat mahsulotlaridagi ulushi 2005-2011 yillar mobaynida deyarli o`zgarmagan (o`rtcha 5%dan o`sib borgan). Bunga sabab sanoat mahsulotlari hajmi yildan yilga oshib borgan va boshqa sanoat tarmoqlari ulushi ham ortib borgan. bundan tashqari sanoat mahsulotlari hajmini yetakchi sanoat tarmoqlari egallagan. Bular yoqilg`i va energitika, mashinasozlik qora va rangli metallurgiya, yengil sanoat va boshqalar. Jumladan 2010 yil sanoat mahsulotlarida yoqilg`i sanoati 19.2%, mashinasozlik va metalni qayta ishlash sanoati 16,2%, rangli metallurgiya 11,4%, yengil sanoat 13,4%, qora metallurgiya 12,3% ulushga egalik qilmoqda. Kimyo sanoati mahsulotlari hajmi esa 2005-yilda 569,5 mlrd so`mni tashkil etib, 2011-yil bu ko`rsatgich 4 barobarga oshib (401,0%) 2283,9 mlrd so`mni tashkil qildi. Sanoat mahsulotlari ham xuddi shunday 5yil mobaynida 4 barobarga oshib (381,6%), 10913,4 mlrd so`mdan 41655,9 mlrd so`mga yetdi. Kimyo sanoati mahsulotlar hajmi o`shishi 2005 yildan 2011 yilgach ijabiy bo`lib har yili deyarli 8,9%ga o`sib borgan.

Bugungi kunda yirik ishlab chiqarish, xomashyo va ilmiy-texnik salohiyatga ega O'zbekiston kimyo sanoati mamlakatimizning yetakchi iqtisodiy tarmoqlaridan biriga aylandi. Ushbu tarmoq respublikamiz iqtisodiyotiga va uning eksport salohiyatini rivojlantirishga ulkan hissa qo'shmoqda.

Mamlakatimizda kimyo sanoatining yanada rivojlanishi, ishlab chiqarish quvvatlaridan oqilona foydalanish, energiyani tejoychi va ekologik xavfsiz texnologiyalarni joriy etish, eksportga yo'naltirilgan va import o'rnini qoplovchi raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish masalalariga katta e'tibor qaratilmoqda. Mamlakatimiz Prezidenti Islom Karimovning 2007 yil 27 iyulda qabul qilingan "2007-2011 yillar mobaynida Kimyo sanoati korxonalarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash dasturi to'g'risida"gi qarori. bu borada muhim dasturilamal bo'lmoqda. Tarmoq rivojida yangi davrni boshlab bergan ushbu hujjatda yuqori texnologiyalarni va zamonaviy boshqaruv tizimlarini qo'llash asosida ishlab chiqarishning texnik darajasi va samaradorligini oshirishga oid ustuvor vazifalar belgilangan.

Mamlakatimiz korxonalarida ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlar turlarini, avvalo, yuqori qo'shimcha qiymatga ega raqobatbardosh tovarlar ishlab chiqarishni rivojlantirish hisobidan kengaytirish hamda eksport hajmini ko'paytirishga doir ko'rilgan chora-tadbirlar natijasida 2011 yilning birinchi yarmida eksport hajmi 18,7 foizga o'sdi va 7,2 milliard dollarni tashkil etdi. Asosiy turdagi eksport qilinadigan tovarlar bo'yicha hisobot davrida oziq-ovqat mahsulotlari (158,7 foiz), kimyo mahsulotlari (133,1 foiz), qora va rangli metallar (136 foiz), mashinalar va uskunalari (178,3 foiz), xizmatlar (128,5 foiz) eksportining yuqori sur'atda o'sishi ta'minlandi. Suprefos, ammos, texnika moylari, avtobuslar, akkumulyatorlar, qora va rangli metallar, to'qimachilik mahsulotlari va boshqa tayyor mahsulotlar eksportining hajmlari oshdi, shuningdek, konsentratsiyalanmagan azot kislotasi, sirka atsetaldegid, kaliy o'g'itlari, jez prokati, selen va tillur, mis shinalari, yangi turdagi to'qimachilik

mahsulotlari, bolalar o`yinchoqlari, bazalt tolasidan tayyorlangan matlar kabi 30 turdagi yangi mahsulotlar eksport qilindi.

Hozirgi paytda “O`z kimyosanoat” DAK korxonalarida turli mineral o`g`itlar, sun`iy tola, polimer materiallar, noorganik moddalar, rezina-texnika mahsulotlari, energetika, oltin qazib olish tarmog`i va yengil sanoat uchun kimyoviy reagentlar, o`simliklarni kimyoviy himoya qilish bo`yicha vositalar, defoliantlar, qishloq xo`jaligida qo`llaniladigan plenka – jami 250 turdagi mahsulot ishlab chiqarilmoqda. Ularning o`nlab turi qator mamlakatlarga eksport qilinmoqda²². Mamlakatimizda kimyo mahsulotlari eksporti yildan yilga oshib bormoqda. Bunga misol qilib O`zbekistonda kimyo sanoatini eksport va importdagi ulushini 2.1.2-jadvalni ko`rishimiz mumkin.

2.2-jadval

O`zbekistonda kimyo sanoatini eksport va importdagi ulushi dinamikasi.

yillar	Eksportdagi ulushi		Importdagi ulushi	
	Hajmda mln \$	%da	Hajmda mln \$	%da
2005	286,6	5,3	556,4	13,6
2006	357,8	5,6	659,3	15,0
2007	611,4	6,8	685,8	13,1
2008	648,0	5,6	975,5	13,0
2009	588,5	5,0	1047,6	11,1
2010	665,2	5,1	1258,3	14,3
2011	841,5	5,6	1397,8	13,3
2011 yilda 2005 yilga nisbatan %da	293,6	105,6	251,2	97,7

Manba: O`zbekiston Statistika malumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

²² <http://uza.uz/uz/business/15179/> O`zA. muhbiri Viktor Nikolayev. 15.12.2010

O`zbekistonda kimyo sanoati mahsulotlari eksport hajmi yil sayin oshib bormoqda. Jami eksportda kimyo sanoati ulushi 2005-2011 yillar mobaynida deyarli o`zgarmagan (o`rtacha 5% ulush). Bunga sabab jami eksport bilan kimyo sanoati mahsulotlar eksporti mos ravishda oshib borgan. Bundan tashqari eksportda yuqori ulushga ega mahsulotlar bor. Masalan 2010 yilda eksport 665,2 mln\$ bo`lib, unda yoqilg`i energetika 24,8%, paxta tolasi 11,3%, oziq-avqat 9,7%, xizmatlar 9,1%, mashina va uskunalari 5,5% qorq va rangli metallurgiya sanoati 6,8% ulushga ega.

Kimyo mahsulotlar eksport hajmi 5 yil mobaynida deyarli 3 barobar oshib (293,6%), 286,6 mln\$ dan 841,5 mln\$ ga oshgan. Kimyo sanoati mahsulotlari importi 2005-2011 yillar davomida jami importdagi ulushi o`rtacha 13%ni tashkil etgan. Kimyo mahsulotlari importi hajmi shu 5 yil davomida 2,5 barobarga oshib(251,2%), 556,4 mln\$ dan 1397,8 mln\$ ga yetgan.

Dehqonobod kaliyli o`g`itlar zavodida o`tgan 2011 yili 180 ming tonna kaliyli o`g`itlar ishlab chiqarishga erishildi. Bugungi kunda zavodimizda yiliga 700 ming tonna silvinit qayta ishlanib, 200 ming tonna kayil o`g`iti tayyorlanmoqda. O`g`itlarning asosiy qismi Shri-Lanka, Xitoy, Malayziya, Singapur va boshqa mamlakatlarga eksport qilinmoqda.

Kimyo sanoati korxonalarini modernizatsiyalash texnik va texnologik qayta jihozlash dasturi o`ttizga yaqin investitsiyaviy loyihani qamrab olgan. Ushbu loyihalarni amalga oshirishga 380 milliard so`mdan ortiq mablag` ajratilgan bo`lib, buning natijasida soha korxonalarida ishlab chiqarish hajmi 1,4 marotaba oshadi. Bunda korxonalarining energiya sig`imi qisqaradi, mahsulot eksporti ortib boradi.

Prezidentimizning 2010-yil 15 dekabrda qabul qilingan va mamlakatimiz sanoatini barqaror, jadal hamda muvozanatli rivojlantirishga yo`naltirilgan “2011-2015 yillarda O`zbekiston Respublikasi sanoatini rivojlantirishning ustuvor yo`nalishlari to`g`risida”gi qarori. ishlab chiqarishlarni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash bo`yicha amalga oshirilayotgan jarayonning mantiqiy davomi bo`ldi.

Sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishda ularning tashqi bozorlarda raqobatbardoshligini ta'minlaydigan xalqaro sifat standartlari va texnik reglamentlarni tizimli joriy etish ham muhim yo`nalish hisoblanadi.

Shunisi e'tiborliki, loyihalarni amalga oshirish doirasida respublikamizda ishlab chiqarilmaydigan va chetdan olib kelinadigan uskunalar, materiallar va butlovchi buyumlar 2016-yilning 1 yanvariga qadar bojxona to'lovlari to'lashdan (bojxona rasmiylashtiruvini yig'implaridan tashqari) ozod etildi.

Mazkur qarorda sanoatda umumiy qiymati qariyb 50 milliard dollarlik 500 dan ziyod yirik investitsiya loyihasini amalga oshirish ko`zda tutilgan.

Yaqin to'rt yilda sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi kamida 60 foizga ko'payishi lozim va bu yalpi ichki mahsulotda sanoat ulushining 2010-yildagi 24 foizdan 2015-yilda 28 foizga oshishini ta'minlaydi. Mashinasozlik, kimyo, oziq-ovqat, farmatsevtika, qurilish materiallari sanoati va boshqa tarmoqlar jadal sur'atda rivojlanib, ular ishlab chiqaradigan mahsulotlar ikki baravardan oshadi.

Yuqori texnologiyalar sohasidagi loyihalarni amalga oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, sintetik suyuq yoqilg'i ishlab chiqarishni tashkil qilish, polietilen va polipropilen mahsulotlar, suyultirilgan va siqilgan tabiiy gaz ishlab chiqarish bo'yicha yangi, zamonaviy gaz-kimyo komplekslarini barpo etish, zamonaviy energiya tejovchi texnologiyalar asosida mineral o'g'itlar hamda yangi turdagi kimyo mahsulotlarini ishlab chiqarish, eskirgan uskunalarni zamonaviy bug`-gaz uskunalari bilan almashtirish hisobidan energetika jadal rivojlantiriladi²³.

Joriy yil 2012 yilning yanvar-sentabr oylarida asosiy kapitalda o'zlashtirilgan investitsiyalar umumiy hajmi 15,3 milliard so'mni tashkil qildi va qiyosiy narxlarda 9,8 foizga oshdi. Jalb etilgan xorijiy investitsiyalar va kreditlar

²³<http://uza.uz/uz/society/21530/> 13.04.2011. O'zA muhбири Viktor Nikolayev. Prezidentimizning 2010-yil 15 dekabrda qabul qilingan va mamlakatimiz sanoatini barqaror, jadal hamda muvozanatli rivojlantirishga yo'naltirilgan "2011-2015 yillarda O'zbekiston Respublikasi sanoatini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida"gi qarori

hajmi 2 milliard dollarni tashkil qildi, jumladan, o`zlashtirilgan 1,6 milliard dollarning (o`shish 2011-yilning shu davriga nisbatan 9,6 foiz) 1,3 milliard dollari to`g`ridan-to`g`ri xorijiy investitsiyalardir.

Xo`jalik sub`ektlari va aholining investitsion faolligini oshirishga doir chora-tadbirlar investitsiyalar hajmini korxonalarining o`z mablag`lari hisobidan 10,3 foiz, aholi mablag`lari evaziga 23,6 foizga oshirish imkonini berdi. O`zbekiston Tiklanish va taraqqiyot jamg`armasi kreditlari hisobidan moliyalash hajmining 1,5 barobarga oshirilishi yirik strategik ishlab chiqarish va infratuzilma loyihalarini amalga oshirishni jadallashtirishga ko`maklashdi.

Buning natijasida 2012-yilning o`tgan davrida 106 ta investitsiyaviy loyihalarni amalga oshirish yakunlandi. “Sho`rtanneftgaz” unitar sho`ba korxonasida propanbutan aralashmasi qurilmasini barpo etish (5-navbat), Navoiy issiqlik elektr stansiyasida gaz siqish kompressor stansiyasini qurish, Navoiy viloyatida texnik kremniy ishlab chiqarishni tashkil etish (I bosqich), Qalmaqir konini kengaytirish, rekonstruksiya qilish va jihozlash hamda boshqa qator loyihalar shular jumlasidandir. O`zbekistonda investitsiyalar hajmi yildan yilga ortib bormoqda. Shunisi takidlash lozimki kiritilgan investitsiyaning deyarli 33%i sanoat soxasiga yo`naltirilmoqda. Kiyu sanoatiga kiritilayotgan investitsiyalar hajmi sezilarli darajada kam. Buni biz keying 2.3-jadvalda ko`rishimiz mumkin.

2.3-jadval

O`zbekistonda kimyo sanoatga kiritilga investitsiyalar dinamikasi.

Yillar	Jami investetsiya mlrd so`mda	Sanoatga		Kimyo sanoatiga	
		Mlrd so`mda	Umumiy hajmga nisbatan ulushi %da	Mlrd so`mda	Umumiy hajmga nisbatan ulushi %da
2006	3838,3	1233,4	32,1	84,9	2,2
2007	5479,7	2013,8	36,8	67,3	1,2

2008	8483,7	2556,6	30,1	164,4	1,9
2009	12531,9	3556,9	28,4	232,4	1,8
2010	15409,1	4399,3	28,6	199,4	1,3
2011	18291,3	5980,0	32,7	186,9	1,0
2011 yilda 2006 yilga nisbatan %da	476,5	484,8	101,8	220,1	45,4

Manba: O`zbekiston Statistika malumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

O`zbekistonga 2011 yil 18291,3 mlrd so`m investitsiya kiritilib, shundan 32,7%i sanoatga yo`naltirildi. Kiritilgan investitsiyalar 2006 yil 3838,3 mlrd so`m bo`lib, 2011 yilgacha 476,5%ga ortib 18291,3 mlrd so`mni tashkil qildi. Shunda sanoat soxasiga 2006 yilda jami investitsiyani 32,1%i yo`naltirilib, 1233,4 mlrd so`mni tashkil qildi. 2011 yilda esa mos ravishda 32,7 %i kiritilib, 2006 yilga nisbatan 484,8% ortidi va 5980,0 mlrd so`mni tashkil qildi. Kimyo sanoatiga ajratilgan investitsiyalar jami investitsiyadagi ulushi 2006 yil 2,2% bo`lib, 84,9 mlrd so`mni tashkil etdi. 2011 yilda esa bu ko`rsatgich mos ravishda 1,0% bo`lib, 2006 yilga nisbatan 220,1 %ga o`sidi va 186,9 mlrd so`mni tashkil etdi. Kimyo sanoatiga ajratiladigan investitsiyalar jami investitsiyaning 1-2%ni tashkil etishi albatda salbiy xolat.

2013-yilning birinchi choragida umumiy qiymati 4,3 milliard dollarlik 114 yangi investitsiya loyihasini amalga oshirish boshlandi, “Stroy Max Invest” mas’uliyati cheklangan jamiyati qo`shma korxonasida gaz-beton ishlab chiqarishni tashkil etish loyihasini bajarish nihoyasiga yetkazildi, “Bekobodsement” ochiq aksiyadorlik jamiyatida quruq uslubda sement ishlab chiqarish bo`yicha yangi liniyani qurish orqali faoliyat ko`rsatayotgan ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish” loyihasi asosida ishlab chiqarish quvvatlari ishga tushirildi, 587 yangi ishlab chiqarish ob’ekti, shu jumladan yengil va to`qimachilik (190 ob’ekt), oziq-ovqat (179), yog`ochni qayta ishlash (29), kimyo sanoati (10), qurilish materiallari (112), mashinasozlik (6) va boshqa tarmoqlarda (61) foydalanishga topshirildi.

O`zbekiston Tiklanish va taraqqiyot jamg`armasi (O`TTJ) 2013 yilgi Davlat investitsion dasturiga kiritilgan 34 loyihani amalga oshirish uchun 809,45 million dollar mablag` ajratadi. Bu haqda UzDaily xabar bermoqda. Ushbu mablag`lar umumiy qiymati 15,216 milliard dollarga teng bo`lgan energetika, neft va gaz, kimyo, transport, turizm va boshqa sohalardagi loyihalar uchun yo`naltiriladi. 2013 yilda O`TTJ eng ko`p 767,45 million dollar miqdoridagi kredit mablag`larni yoqilg`i-energetika, kimyo, neft va gaz hamda metallurgiya sohasidagi loyihalar uchun ajratadi. Umuman, 2013 yil davomida ushbu sohalar bo`yicha 2,014 milliard dollar mablag` o`zlashtirilishi ko`zda tutilgan. Kommunal xizmat, transport, kapital qurilish va qurilish sanoati sohalari 2013 yilda O`TTJdan 42 million dollar mablag` olishadi. Kelasi yili ushbu yo`nalishda 281,25 million dollar o`zlashtiriladi, undan 65,44 million dollarini O`TTJ mablag`lari tashkil etadi. O`zbekiston tiklanish va taraqqiyot jamg`armasi 2006 yilda tashkil topgan bo`lib, Davlat investitsion dasturiga kiritilgan loyihalarni moliyalashtirish uchun xizmat qiladi²⁴.

2.2. O`zbekistonda kimyo sanoatini rivojlanish istiqbollari

O`zbekistonda kimyo sanoati rivojlanishini tahlil qilayotganimizda bir qator muammolarga duch kelishimiz mumkin. Bu muammolar:

– Mamlakatning tabiiy va mineral-xom ashyo resurslari yirik zahiralari mavjud. Ammo bu kabi xom ashyolarni qazib chiqarish, uni qayta ishlash jarayonida texnika texnologiyani eskirganligi va yetishmsligi. Buning natijasida kimyo mahsulotlari ishlab ciqarish samaradorligi oshmayotganligi. Masalan mineral o`gitlar ishlab chiqarish 2011-yil 1,2 mln tonna tashkil etgan bo`lsa(1.7-jadval), mineral o`gitlar orasida birgina azot ishlab chiqarish sanoat quvvati 2,8 mln tonnani tashkil etadi(1.4-jadval). Kimyoviy tola va iplar ishlab chiqarish

²⁴ Davlat statistika qo`mitasi Axborot xizmati malumotlari 2013.

2011-yilda 16,2 ming tonnani tashkil etgan bo`lsa(1.7-jadval), bu sanoat tarmog`ini quvvati 180 ming tonnani tashkil etadi(1.4-jadval);

– Kimyo sanoatida yangi turdagi kimyo mahsulotlarini o`zlashtirishda geologik qidiruv ishlari va yangi kashfiyotlar uchun moliyalashtirishni kengroq yo`lga qo`yilmaganligi;

– Zamonaviy ilmiy tadqiqotlar va tajriba ishlarini amalga oshirishda malakali kadrlar va mutaxassis oliblarni yetishmasligi;

– Kimyo sanoat tarmog`ida innovasion faoliyatning rivojlanmaganligi, ilg`or innovasion yangiliklarning tarmoq korxonalarida kam joriy etilishi. Masalan O`zbekistonga 2011 yil 18291,3 mlrd so`m investitsiya kiritilib, shundan 32,7%i sanoatga yo`naltirildi. Kimyo sanoatiga ajratilgan investitsiyalar jami investitsiyadagi ulushi 2006 yil 2,2% , 2011 yilda esa bu ko`rsatgich 1,0% ga tushdi. Kimyo sanoatiga ajratiladigan investitsiyalar jami investitsiyaning 1-2%ni tashkil etishi albatda salbiy xolat;

– Kimyo sanoati mahsulotlarini ishlab chiqarishda tabiat va insonlarga salbiy zarar yetkaz ehtimoli yuqoriligi, ishlab chiqarish jarayoniga davlat aralashuvini taqoza etilishi. Xususan, Prezidentimiz I.A.Karimovning «O`zbekiston XXI asr bo`sg`asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari, taraqqiyot kafolatlari» asarlarida ta`kidlanganidek: «Sanoat korxonalarida atmosferaga, suv havzalariga va tuproqqa ifloslantiruvchi hamda zararli moddalarni tashlaganlik uchun solinadigan maxsus soliqdan keng foydalangan holda ma`suliyatni oshirish darkor. Ularda zamonaviy, samarali tozalash qurilmalari tizimini joriy etish kerak. Boshlang`ich xom ashyodan tayyor, pirovard mahsulot olgunga qadar kompleks foydalanishga imkon beradigan yangi, zamonaviy, ekologik jihatdan samarali uskunalarni o`rnatish lozim»;

Hozirgi kundagi ekologik va iqtisodiy vazifa eng mukammal chiqindisiz kimyoviy texnologiyani qo`llashdir. O`zbekistonda joylashgan barcha kimyo korxonalarini yaqin yillar ichida chiqindisiz texnologiya asosida ishlashga moslashtirilishi lozimdir. Bu vazifani xal qilish, ya`ni yuksak malakali

kimyogarlar, kimyogar-muhandislar tayyorlash respublikamizning oliy o'quv yurtlari zimmasiga yuklanadi;

Bu kabi muammolarni bartaraf etish soha rivojlanish sur'atlarini oshiradi. Bu muammolarni inobatga olgan xolda yurtimizda kimyo sanoatini rivojlantirishda davlat tomonida loyiha va dasturlar amalga oshirilmoqda. Jumladan Prezidentimiz I.A. Karimov tashabbusi bilan amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar samarasi o'laroq, mamlakatimiz sanoatining innovatsion salohiyati sezilarli ravishda oshmoqda. Masalan, bugungi kunda kimyo sohasida amalga oshirilayotgan 11 ta yirik innovatsiya loyihasi eksportbop va import o'rnini bosadigan yangi turdagi mahsulotlar ishlab chiqarish hisobidan tayyorlanayotgan mahsulot hajmini oshirish, yangi ish o'rinlari tashkil etish imkonini beradi. "O'z kimyosanoat" davlat-aksiyadorlik kompaniyasi Innovatsiyalar markazida istiqbol uchun bir qancha innovatsion loyihalar va yo'nalish ishlab chiqilgan. Bular :

– Davlatimiz rahbari tomonidan milliy iqtisodiyotimizning kimyo tarmog'ini rivojlantirishga doimiy e'tibor qaratilayotgani, mamlakatimizda xomashyo zaxirasi boyligi, yuqori malakali kadrlar mavjudligi ishlab chiqarishni yangilash va kengaytirish imkonini bermoqda. Prezidentimizning 2009 yil 12 martda qabul qilingan "2009-2014 yillarda ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnikaviy va texnologik qayta jihozlash bo'yicha eng muhim loyihalarni amalga oshirish chora-tadbirlari Dasturi to'g'risida"gi va 2009 yil 11 martda qabul qilingan "Qurilishni jadallashtirish va yangi turdagi kimyo mahsulotlarini o'zlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari bu borada muhim dasturi amal bo'lib xizmat qilmoqda. Ushbu muhim vazifaning hal etilishi O'zbekiston kimyo sanoatining ham ichki, ham tashqi bozordagi o'rnini yanada mustahkamlaydi.

Ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilashdan asosiy maqsad, yangi turdagi xaridorgir mahsulotlarni ishlab chiqarishni o'zlashtirishdir. Masalan, sohaga oid innovatsiya dasturida ishlab chiqarilayotgan azot o'g'itlar, jumladan fosfatli ammiak selitrasi turlarini ko'paytirish ko'zda

tutilgan. Shu maqsadda “Navoiyazot” ochiq aksiyadorlik jamiyatida yiliga 20 ming tonna mahsulot ishlab chiqarish quvvatiga ega tajriba-sanoat korxonasi qurilishi nihoyasiga yetmoqda. Fosfatli ammiak selitrasi ammiak selitrasiga fosforitlar chiqindilarini qo`shish orqali olinadi va bu uning tarkibida azot miqdorini talab darajasidagi 26-28 foizga kamaytiradi. Shu tariqa, tarkibida tuproq uchun kerakli ikkita ozuqa elementi – azot hamda fosfor bo`lgan deyarli yangi o`g`it ishlab chiqariladi. 2010 yilda ishlab chiqarish quvvatini yiliga 150 ming tonnagacha oshirish rejalashtirilgan. Bu esa, o`z navbatida, mamlakatimiz qishloq xo`jaligining ushbu qimmatbaho o`g`itga bo`lgan ehtiyojini ta`minlash bilan birga, uni eksport qilish imkonini ham beradi.

Yana bir yangi mahsulot o`g`it sifatida muvaffaqiyatli qo`llash mumkin bo`lgan karbamid-ammiak selitrasining tarkibida ham azot miqdori 28-30 foizni tashkil qiladi. Joriy yil oxirigacha 11,7 ming tonna karbamid-ammiak selitrasi ishlab chiqarish kutilmoqda.

Bundan tashqari, jahon bozorida talab ortib borayotgan azot-fosfor-kaliy o`g`itlarining yangi turlarini ishlab chiqarish ham mahsulot assortimentini kengaytirish imkonini beradi. Ularning afazalligi “uchtasi bittada” prinsipi bo`yicha agrokimyoviy samaradorlikning yuqoriligidadir. 2010 yilda Dehqonobod kaliy zavodini ishga tushirish mo`ljallanmoqda va buning natijasida kimyo tarmog`i ana shunday o`g`itlarni ishlab chiqarish imkoniga ega bo`ladi.

Shuningdek, tabiiy gazni chuqur qayta ishlash asosida mahsulot ishlab chiqarishni yo`lga qo`yish, zichligi past ammoniy nitriti, natriy nitriti, katalizatorlar, sintetik yuvish vositalari ishlab chiqarishni kengaytirish ham bu boradagi muhim vazifalar sirasiga kiradi.

– «O`zkimyosanoat» davlat-aksiyadorlik kompaniyasining innovatsiya loyihalari avval O`zbekistonda ishlab chiqarilmagan qator yangi turdagi mahsulotlarni o`zlashtirishni o`z ichiga oladi. Ilgari Olmaliq kon-metallurgiya kombinati, Navoiy kon-metallurgiya kombinati, «Kvars» ochiq aksiyadorlik jamiyati uchun chetdan sotib olingan *natriy selitra* ham shunday mahsulotlardan.

Bugun «Maksam-Chirchiq» va «Farg`onaazot» ochiq aksiyadorlik jamiyatlari mamlakatimizda ushbu kimyo mahsulotiga bo`lgan ehtiyojni to`liq ta'minlamoqda. Bundan tashqari, «Navoiyazot» ochiq aksiyadorlik jamiyatida kaliy selitrasini ishlab chiqarishning asosiy texnologik ko`rsatkichlarini aniqlash bo`yicha sinovlar yakunlandi. Polixlorid aluminiy koagulyantini olish texnologiyasini ishlab chiqish davom etmoqda. Uning o`ziga xos xususiyati shundaki, suvni suzib yuruvchi zarralardan tozalaydi va zararsizlantiradi. Shunisi e'tiborga loyiqliki, ushbu koagulyantni ishlab chiqarish texnologiyasi mahalliy xomashyo – Angrenda ishlab chiqariladigan kaolinga asoslangan.

Mamlakatimiz lok-bo`yoq sanoati temir oksidi pigmentlariga ehtiyoj sezmoqda. Ayni paytda «Qo`qon superfosfat zavodi» ochiq aksiyadorlik jamiyatida ushbu mahsulotni ishlab chiqarish uchun tayyorgarlik ishlari amalga oshirilmoqda. Sintetik yuvish vositalarining muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblangan natriy sulfatini ishlab chiqarishni yo`lga qo`yish ham muhim ahamiyatga ega. Buning uchun zarur xomashyo Qoraqalpog`iston Respublikasida, Qo`ng`irot soda zavodi yaqinida bor va ushbu loyihani shu yerda amalga oshirish mo`ljallanmoqda.

Demetil efiri, natriy tripolifosfat, monoxlor sirka kislotasi va boshqa talab yuqori bo`lgan kimyo mahsulotlarini ishlab chiqarish texnologiyalari ham joriy etilishi ko`zda tutilayotgan istiqbolli ishlanmalardan hisoblanadi. Masalan, dimetil efiri ekologik toza va zaharsiz yoqilg`idir.

Yorug`lik o`tkazish xususiyatiga ega bo`lgan polietilen plyonkalarini ishlab chiqarishni yo`lga qo`yish ham rejalashtirilmoqda. Issiqxonalarda foydalanilayotgan oddiy plyonkalarni bir mavsum ishlatish mumkin. Yorug`lik o`tkazadigan plyonkalardan esa uch mavsum davomida foydalansa bo`ladi. Bundan tashqari, ularning xususiyatlari o`simlik uchun aynan zarur bo`lgan nurni o`tkazish imkonini beradi. Bu boradagi ishlar «Jizzax plastmassa» ochiq aksiyadorlik jamiyatida boshlandi.

Farg`ona furan birikmalari zavodida esa paxta sellulozasidan keng iste'mol tovarlari salfetka, pampers, bir marta ishlatiladigan dasturxon, choyshab ishlab chiqarish kengaytirilmoqda.

– Markaz, faoliyat ko`rsatayotgan ko`plab ilmiy muassasalar, oliy o`quv yurtlari, shuningdek, kompaniya va korxonalarining tadqiqot laboratoriyalari, texnik xizmatlari bilan yaqin hamkorlik qilmoqda. Korxonalarda innovatsiyalar jamg`armalari tashkil etilmoqda. Ular innovatsiya ishlarini qo`llab-quvvatlash va amaliyotga joriy etishga yordam beradi. Bundan tashqari, innovatsiya ishlanmalari korxonalarining o`z mablag`lari va «O`zkimyosanoat» davlat-aksiyadorlik kompaniyasining maxsus jamg`armasi mablag`lari hisobidan moliyalashtirilmoqda. Ushbu innovatsiya ishlanmalarining eng yaxshilari yaqinda «O`zekspomarkaz»da ochiladigan II-Respublika innovatsiya g`oyalari, texnologiyalari va loyihalari yarmarkasida namoyish etiladi²⁵.

Bugun kimyo sanoati mamlakatimiz iqtisodiyotining jadal rivojlanib borayotgan tarmoqlaridan biridir. Bu jarayon, avvalo, mahalliy xomashyodan samarali foydalanishga yo`naltirilgan ilg`or texnologiyalarni joriy etishga asoslangan bo`lib, bu yangi turdagi yuqori sifatli mahsulotlarni ishlab chiqarish, ayni vaqtda ularning tannarxini kamaytirish imkonini beradi. Kimyo sanoatidagi innovatsiya faoliyatining bunday ijobiy natijalari mamlakatimizda iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish, xalqimiz farovonligini oshirishga salmoqli hissa qo`shadi. Sayyoramizning 2012-yildagi global investitsion loyihalari reytingiga dunyoning barcha mintaqalari bo`ylab sanoat tarmoqlari va infratuzilmalarida amalga oshirilgan eng yirik investitsion loyihalar kiritildi.

2012-yilda dunyoda loyihaviy moliyalash asosida umumiy qiymati 382 milliard dollarga teng 900 ziyod loyiha amalga oshirila boshlangan. Ayni paytda ularning salmoqli qismi Osiyo mintaqasiga (28 foiz), Avstraliyaga (22 foiz) to`g`ri keladi. Yevropada loyihaviy moliyalash hajmi umumiy moliyalash hajmining 16

²⁵ <http://uza.uz/uz/business/15179/> O`zA. muhbiri Viktor Nikolayev. 15.12.2010

foizini tashkil etib, bir yilda 38 foizga kamaygan, Shimoliy Amerikada bu ko'rsatkich 13 foizni, Janubiy Amerikada 11 foizni tashkil etadi. Shuningdek, Yaqin Sharq va Shimoliy Afrika davlatlarida ham loyihaviy moliyalash hajmi 29 foizga kamayib, umumiy miqdorning 9 foizini tashkil etdi.

Tarmoqlar bo'yicha yetakchi o'rinni 30 foizni transport va kommunal infratuzilmani rivojlantirish loyihalari egalladi, neft-gaz va neft-kimyo sanoati loyihalari, shuningdek, elektrenergiya sohasidagi loyihalarning har biri 29 foizni tashkil etdi. Qolgan qismi telekommunikatsiya, tog'-kon sanoati va sanoatning boshqa tarmoqlaridagi loyihalardir.

Dunyoning eng yaxshi 10 ta investitsion loyihasi qatoridan neft-gaz, tog'-kon sanoati, transport va kommunal infratuzilmalari loyihalari o'rin oldi. Ular Avstraliyada (to'rtta loyiha), AQSH, Fransiya, Buyuk Britaniya, Singapur, Germaniya va O'zbekistonda (bittadan loyiha) amalga oshirilmoqda.

Global loyihalarning "o'nligiga" kiritilgan Ustyurt gaz-kimyo majmuasini qurish loyihasi rivojlanayotgan mamlakatlar bozoridagi eng yirik investitsion loyiha, deb e'tirof etildi.

Ustyurt gaz-kimyo majmuasini qurish loyihasida yirik Surg'il gaz konini o'zlashtirishni yanada jadallashtirish, tabiiy gazni ajratib olish, kreking va yakuniy mahsulot ishlab chiqarish zavodlarining barpo etilishi nazarda tutilgan. Ushbu majmua 4,5 milliard kubmetr tabiiy gazni qayta ishlash natijasida, 400 ming tonna polietilen va 100 ming tonna polipropilen ishlab chiqarish imkonini beradi. Yillik eksport hajmi 750 million dollardan oshadi. Mahsulotning asosan Yevropa, Sharqiy va Janubi-sharqiy Osiyo bozorlarida sotilishi mo'ljallanmoqda. Ustyurt gaz-kimyo majmuasi 2016-yildan ishga tushiriladi.

Ustyurt gaz-kimyo majmuasini qurish loyihasini "O'z-Kor gaz kemikal" qo'shma korxonasi amalga oshiradi. Mazkur qo'shma korxonada "O'zbekneftgaz" milliy xolding kompaniyasi hamda Janubiy Koreyaning "Kogaz", "Lotte grupp" va "STEks enerджи" kompaniyalari investitsiyaviy konsorsiumi tomonidan ta'sis etilgan.

Loyihaning umumiy qiymati 4 milliard dollardan ortiqdir. Shundan 2,54 milliard dollari O`zbekiston Respublikasi hukumatining kafolatisiz 16 bank, sug`urta kompaniyalari va moliyaviy institutlardan iborat xalqaro kredit konsorsiumi tomonidan loyihaviy moliyalashtirilishi ko`zda tutilgan. Loyihaning qolgan qismi muassislar hisobidan moliyalanadi. Xabar qilishicha, “Tomson-Reyter” jahon biznes axborot agentligining bo`linmasi – “Projekt faynens interneshnl” jurnali 2012-yil yakunlari bo`yicha, loyihaning noyoblighi va yangiligini alohida qayd etib, o`z reytingida Ustyurt gaz-kimyo majmuasini qurish loyihasini neft-kimyo sohasidagi yilning eng yaxshi loyihasi, sobiq ittifoq hududidagi eng yirik neft-kimyo loyihasi, deb e`tirof etdi²⁶. O`zbekistonda kimyo sanoatida yirik va iqtisodiyotni samaradorligini oshiradigan bir qancha loyihalar rejalashtirilgan. Bularni biz 2.4-jadvalda ko`rishimiz mumkin.

2.4-jadval

O`zbekiston kimyo sanoatida amalga oshiriladigan ayrim investitsion loyihalar (mln AQSH dollarda)

Loyiha nomi	Loyiha quvvati	Amalga oshirish muddati	Loyihaning umumiy qiymati
Surgil koni bazasida gaz-kimyo kompleksi qurish.	400 ming t. politilen, 100 ming t. polipropilen.	2008-2014 yillar	3500
Shurtan gazni qayta ishlash zavodida tozalangan metan bazasida sintitik suyuq yoqilg`i ishlab chiqarish.	2,5 mltd kub m. tabiiy gaz.	2009-2039 yillar.	1527,1

²⁶Manba: O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 27 dekabrda “2012 yilga investitsiya dasturi to`g`risida”gi 1668-qarori..

Tomson-Reyter” jahon biznes axborot agentligining bo`linmasi – “Projekt faynens interneshnl” jurnali. 2012-yil yakunlari bo`yicha. Karimov I.A. 2012-yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko`taradigan yil bo`ladi // 2011-yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2012-yilga mo`ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo`nalishlariga bag`ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma`ruzasi. - “Xalq so`zi”, 2012, 20-yanvar.

“ Muborak gazni qayta ishlash zavodi” unitar shuba korxonasida gaz-kimy o kompleksini qurish.	400 ming t. politilen	2011-2015 yillar.	2305,5
Qo`ng`irot soda zavodining ikkinchi navbatini bunyod etish.	Qo`shimch 50 ming tonna	2010-2014 yillar.	279,87
”Rezinotexnika” OAJ bazasida konveyr lentalari, Q/x va avtomobil sinalarini ishlab chiqarish.	100 ming p.m. koveyr liniyalari, 200 ming dona q/xlik shinalari, 1,5 mln dona avtomobil shinalari.	2011-2014 yillar.	230
Dehqonobod kaliy o`g`itlari zavodining ishlab chiqarish quvvatini kengaytirish (II-etap).	Quvvatni 600 ming tonnaga yetkazish.	2011-2013 yillar.	254,6

O`zbekistonda kimyo sanoatini iqtisodiyotdagi o`rmini oshib borishida bi qator istiqbol loyihalar rejalashtirilgan. Bular qatoriga: Dehqonobod kaliy o`g`itlari zavodining ishlab chiqarish quvvatini kengaytirish 2-etap (yillik quvvatini 600ming tonnaga yetkazish, loyihaga 254,6 mln\$ sarflanib,2011-2013 yillarda bitkaziladi), Surgil koni bazasida gaz-kimy o kompleksi qurish (yillik quvvati 400 ming t. politilen, 100 ming t. polipropilen qo`shimcha qilish va 3500 mln\$ sarflab, 2008-2014 yillarda qurib bitkaziladi), “ Muborak gazni qayta ishlash zavodi” unitar shuba korxonasida gaz-kimy o kompleksini qurish, ”Rezinotexnika” OAJ bazasida konveyr lentalari, Q/x va avtomobil sinalarini ishlab chiqarish kabi yirik loyiha uchun mos ravishda 2305,5 mln\$, 230 mln\$ sarflanadi. Joriy 2012-yilda iqtisodiyotimizni diversifikatsiya qilishni davom ettirishda o`ta muhim ahamiyatga ega bo`lgan loyihalarni amalga oshirish mo`ljallanmoqda. Jumladan, Surg`il koni bazasida Ustyurt gaz-kimy o kompleksi, Dehqonobod kaliyli o`g`itlar va Qo`ng`irot soda zavodlarining ikkinchi navbatini, sintetik suyuq yoqilg`i ishlab chiqarish zavodini qurish ishlari boshlanadi.

2012 yilgi Investitsiya dasturida Dehqonobod kaliyli o`g`itlar zavodi faoliyatiga doir yana bir loyihaning ro`yobga chiqarilishi belgilangan bo`lib, unga ko`ra, shu yilning o`zidayoq mazkur korxonaning ishlab chiqarish quvvatini loyihadagi yillik 200 ming tonnadan 220 ming tonnagacha oshirish ko`zda tutilgan. Buning uchun korxonadan 2,8 million dollarga teng mablag` o`zlashtirilib,

qo`shimcha texnologiyalar o`rnatish va yiliga yana 20 ming tonna kaliy xloridi ishlab chiqarish yo`lga qo`yiladi²⁷.

O`zbekiston Prezidenti I.A. Karimov 2012yil 19 yanvar kuni Vazirlar Mahkamasida 2011 yilda respublikani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlariga va 2012 yilda iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishning eng muhim ustuvor vazifalariga bag`ishlangan majlisida 2012 yilda Ustyurt gazkimyo majmuasi, Dehqonobod kaliyli o`g`itlar zavodi, boshqa yirik loyihalar bilan birgalikda Qo`ng`irot soda zavodining ikkinchi navbatini bunyod etishga kirilishini alohida ta`kidlab o`tdi, - deydi «Qo`ng`irot soda zavodi» unitar korxonasi bosh direktori Rashid Yakubov. Bu ikkinchi navbat korxonada qo`shimcha 50 ming tonna kalsiyli soda ishlab chiqarish imkonini yaratadi. Mazkur korxonada tufayli Ustyurtda o`ziga xos industrial makon vujudga keldi. Zavod qoshida Toshkent Kimyo-texnologiya institutining filiali faoliyat ko`rsatayapti. Mustaqil mamlakatimizning eng kenja shahri hisoblangan Elobod kundan-kunga yashnab, chiroy ochib bormoqda.

Bir so`z bilan aytganda, Ustyurt Navoiy, Chirchiq, Ohangaron, Olmaliq, Sho`rtan, Qorovulbozor, Farg`ona, Muborak, Asaka kabi ozod yurtning ishonchli iqtisodiy ustuniga aylanib bormoqda. Yana bir muhim jihati, shakllanayotgan Ustyurt industrial hududi Orolbo`yining istiqboli porloq ekaniga haqiqiy kafolatdir²⁸.

Tepaqo`ton koni negizida barpo etilgan Dehqonobod kaliyli o`g`itlar zavodi ikkinchi navbatining qurilishi natijasida ushbu korxonaning ishlab chiqarish quvvati uch baravar ortib, eksport qilinadigan mahsulot hajmi sezilarli darajada ko`payadi, hududning ijtimoiy infratuzilmasi rivojlanib, aholining bandlik darajasi yanada oshadi.

Prezidentimiz Islom Karimovning “2012 yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi

²⁷ O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 27dekabrdagi “2012yilga investitsiya dasturi to`g`risida”gi 1668-qarori

²⁸ O`zbekiston Prezidenti I.A. Karimov 2012yil 19 yanvar kuni Vazirlar Mahkamasida 2011 yilda respublikani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlariga va 2012 yilda iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishning eng muhim ustuvor vazifalariga bag`ishlangan maruzasida.

bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi" ma'ruzasida joriy yilda mamlakatimizda iqtisodiyotimizni diversifikatsiya qilishni davom ettirishda o'ta muhim ahamiyatga ega loyihalarni amalga oshirish mo'ljallanayotgani, ko'plab bunyodkorlik ishlari qatorida Dehqonobod kaliyli o'g'itlar zavodining ikkinchi navbati qurilishini boshlash ko'zda tutilayotgani alohida ta'kidlandi. Zero, 2011-2015 yillarda O'zbekiston Respublikasi sanoatini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risidagi dasturga muvofiq, hayotga tatbiq etilayotgan "Dehqonobod kaliyli o'g'itlar zavodining ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish (II navbati)" loyihasi nafaqat mamlakatimiz, balki butun Markaziy Osiyo mintaqasida kimyo sanoati sohasida ro'yobga chiqarilayotgan eng istiqbolli va eng yirik loyihalardan biridir. Umumiy qiymati 254,6 million AQSH dollariga teng bu loyihaning amalga oshirilishi zavodning kaliyli o'g'itlar ishlab chiqarish quvvatini yiliga 600 ming tonnaga yetkazish bilan birga bugungi kunda dunyoning ko'plab mamlakatlariga sotilayotgan ushbu mahsulot eksportini yanada ko'paytirish uchun ham mustahkam zamin yaratadi.

Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasidan olingan ma'lumotlarga ko'ra, joriy yilning dastlabki oyida kaliyli o'g'itlar ishlab chiqarish hajmi 17,1 ming tonnani tashkil etgan. Mazkur zavodning yillik ishlab chiqarish quvvatini loyihada nazarda tutilgan 200 ming tonnadan oshirish choralari ko'rilmoqda. Mutaxassislarning fikricha, zavod tog'-kon majmuasining noyobligi shundaki, unda jahonda birinchi marta kaliy tuzlari qatlamiga yetib borish uchun vertikal emas, balki 6-8 daraja qiyalikdagi gorizontalar quduqlar qazilgan. Bu jarayonda eng qudratli tog'-kon kombaynlari, o'ziyurar vagon va bunker hamda boshqa maxsus texnikalardan foydalanilgan. Amalga oshirilgan ishlar natijasida qurilish boshlanganidan ikki yil o'tgach, kondan ilk sanoat rudasi olindi. Vaholanki, boshqa mamlakatlarda o'zlashtirilishi ancha oson kechadigan konlarda ham rudaga yetib borish uchun besh-olti yil vaqt sarflanadi. Mazkur korxonaning ikkinchi navbatini qurish chog'ida tog'-kon majmuasida uchinchi qiya quduq qazilishi, buning uchun yanada ko'proq maxsus texnikalar jalb etilishi va oldingidan ham

qudratliroq konveyer transporti ishlatilishi ko`zda tutilgan.

Bundan tashqari, tog`-kon majmuasidan qayta ishlash kompleksigacha silvinit rudasini yetkazib berish va konga qayta ishlashdan keyin qolgan tuzlarni olib borish uchun yuk tashishga mo`ljallangan osma “arqon yo`li” barpo etiladi. Uning quvvati yiliga 2,1 million tonna ruda tashish imkonini beradi. Dehqonobod kaliyli o`g`itlar zavodining ikkinchi navbati foydalanishga topshirilgach, tog`-kon majmuasida bir yilda qazib olinayotgan silvinit miqdori hozirgidan 1,4 million tonnaga oshadi. Ayni vaqtda “Dehqonobod kaliyli o`g`itlar zavodining ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish (II navbati)” loyihasi doirasida Xitoyning “CITIC International Cooperation Co. Ltd” kompaniyasi bosh pudratchiligida yiliga yana 400 ming tonna kaliyli o`g`itlar ishlab chiqarish imkonini beradigan qayta ishlash majmuasi quriladi. Loyihani moliyalashtirishga Xitoy Xalq Respublikasi Eksimbankining 110,5 million AQSH dollari miqdoridagi krediti, “O`z kimyosanoat” kompaniyasining o`z resurslari hamda O`zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg`armasining 128,1 million dollarlik mablag`lari yo`naltiriladi. O`zbekiston Respublikasining 2012 yilgi Investitsiya dasturiga muvofiq, joriy yilda “Dehqonobod kaliyli o`g`itlar zavodining ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish (II navbati)” loyihasini hayotga tatbiq etish doirasida 100 million dollarga teng miqdorda sarmoya o`zlashtirilishi mo`ljallanmoqda²⁹.

«Navoiyazot» OAJ O`zbekiston Respublikasining yirik kimyo sanoati korxonasi hisoblanadi. Ishlab chiqariladigan mahsulotlar: ammiak, azot kislotasi, xlorid kislotasi, ammiakli selitra, ammoniy xlorid, suyuq xlor, suyuq holdagi natriy sianidi va boshqalar.

Amaldagi ishlab chiqarishlarning sanoat quvvatlarini oshirish bilan birgalikda raqobatbardosh yangi kimyoviy mahsulot chiqarish bo`yicha yangi sexlarni qurish rejalashtirilmoqda. Xorijiy sarmoyadorlarni jalb etishga oid ish olib

²⁹ Prezidentimiz Islom Karimovning “2012 yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko`taradigan yil bo`ladi” ma`ruzasida. 2011.

borilyapti: shahar va respublika gazetalarida reklama joylashtirilib, bizning asosiy hamkorlarimiz - Rossiya, Xitoy, Turkiya, Ukraina, Eron, Boltiq bo`yi mamlakatlari va boshqa davlatlar firma va kompaniyalariga xatlar jo`natilgan. Hozirda korxonamizning iqtisodiy va ishlab chiqarish ko`rsatkichlarini e`tibor bilan o`rganib, «Navoiyazot» OAJ ning faoliyatida ishtiroq etish istiqbollarini baholayotgan bir qator potensial xorijiy sarmoyadorlar mavjud. Ma`lumki, korxonaning normal faoliyatini boshqa korxonalar va tashkilotlar bilan o`zaro aloqasiz tasavvur qilib bo`lmaydi. Shu bois mahsulotni sotish bozorini nafaqat MDH davlatlarida balki boshqa xorijiy davlatlarda ham kengaytirish va xaridorlar sonini ko`paytirishga asosiy urg'u berilmoqda.

«Navoiyazot» OAJ da chiqarilayotgan mahsulotlarning sifatini yaxshilash, tannarxini pasaytirish hisobiga korxonalar mahsulotlarining ichki va xorijiy bozorlarda raqobatbardoshligini ta'minlash maqsadida, texnologiyalarni modernizatsiyalash va ishlab chiqarishni texnik qayta jihozlashga qaratilgan faol investitsion siyosat amalga oshirilmoqda³⁰. Buni davomi sifatida 2.5-jadvalda korxonaning istiqbolga mo`ljallangan investitsion loyihalarni ko`rishimiz mumkin.

2.5-jadval

«Navoiyazot» OAJ korxonasi investitsiya loyihalari.

Loyihalar nomi	Amalga oshirish muddati	Kutilayotgan natija
Ammiak va karbamidni ishlab chiqarish bo`yicha majmuani qurish	2010-2014 yillar	Ammiak ishlab chiqarishning kutiladigan quvvati – 660 ming tonna yiliga, Karbamid – 1000 ming tonna yiliga
Polivinilxlorid va kaustik sodani ishlab chiqarish bo`yicha yangi majmuani yaratish	2010-2014 yillar	PVX ishlab chiqarishning kutiladigan quvvati – 50 ming tonna yiliga, kaustik soda – 32 ming tonna yiliga
Tiomochevina ishlab chiqarishini kengaytirish	2011-2013 yillar	Ishlab chiqarishning quvvatini 3000 tonnaga oshirish

³⁰Manba: <http://www.navoiyazot.uz/uzb/progress.html>

Nitrat kaliyni ishlab chiqarishini tashkil qilish	2011-2015 yillar	Nitrat kaliy ishlab chiqarishning kutiladigan quvvati– 3000 tonna yiliga
To`qimachilik sanoati uchun oqartirgichni ishlab chiqarishni tashkil qilish	2014-2015 yillar	Oqartirgich ishlab chiqarishning kutiladigan quvvat – 10000 tonna yiliga
Monoxlorsirka kislotaning ishlab chiqarishini tashkil qilish	2012-2015 yillar	Monoxlorsirka kislotaning ishlab chiqarishning kutiladigan quvvat– 5000 tonna yiliga

O`zbekistonda kimyo sanoatini rivojlanishida «Navoiyazot» OAJ korxonaning o`rni yuqori. Bu korxonada 2010 yilda investitsiya siyosati natijasida bir qator loyihalar yaratildi. Bular: Ammiak va karbamidni ishlab chiqarish bo`yicha majmuani qurish, (yillik quvvati ammiak – 660 ming tonna, karbamid – 1000 ming tonna yiliga, 2010-2014 yillarda bitkaziladi.), polivinilxlorid va kaustik sodani ishlab chiqarish bo`yicha yangi majmuani yaratish (PVX ishlab chiqarishning kutiladigan quvvati – 50 ming tonna yiliga, kaustik soda – 32 ming tonna yiliga 2010-2014 yillarda bitkaziladi.), nitrat kaliyni ishlab chiqarishini tashkil qilish (nitrat kaliy ishlab chiqarishning kutiladigan quvvati– 3000 tonna yiliga 2011-2015 yillarda quriladi.), to`qimachilik sanoati uchun oqartirgichni ishlab chiqarishni tashkil qilish, monoxlorsirka kislotaning ishlab chiqarishini tashkil qilish kabi loyihalar Navoiyazot» OAJ korxonaning samaradorligini yanada oshiradi.

2013 yil 18 dekabr kuni Oliy Majlis Qonunchilik palatasida 2011–2015 yillarda O`zbekiston Respublikasi sanoatini rivojlantirishning ustuvor yo`nalishlarini amalga oshirish bo`yicha Dastur bajarilishining borishi to`g`risidagi parlament eshituvi bo`lib o`tdi. Ushbu masala yuzasidan O`zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o`rinbosari G`. Ibragimov axborot berdi. Ishbilarmonlar va tadbirkorlar harakati O`zbekiston Liberal- demokratik partiyasining parlamentdagi fraksiyasi tashabbusiga ko`ra bu tadbir Dastur bajarilishining borishini tanqidiy

jihtdan tahlil etish, Vatanimiz sanoatini rivojlantirishning qonunchilik bazasini yanada takomillashtirish yuzasidan chora-tadbirlar ishlab chiqish, mazkur keng ko'lamli ishda deputatlar korpusining faolligi va rolini oshirish maqsadida o'tkazildi. Shu narsa ta'kidlandiki, Dasturda barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan sanoatda umumiy summasi qariyb 50 milliard dollar bo'lgan 500 dan ziyod yirik investitsiya loyihalarini, shu jumladan, geologiya hamda issiqlik-energetika komplekslarida, kimyo, neft-kimyo va metallurgiya sanoatida umumiy summasi 41,8 milliard dollar bo'lgan 220 ta loyihani amalga oshirish nazarda tutilgan. Mamlakatimiz sanoati va iqtisodiyotining raqobatdoshligini oshirishga, jahon kon'yunkturasidagi o'zgarishlarga, shuningdek, tuzilma tashkil etuvchi tarmoqlar rivojlanishiga bog'liqligini kamaytirish borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Energetikani, neft-gaz-kimyo hamda kimyo sanoatining jadal rivojlanishini ta'minlash, shuningdek, ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot tannarxini kamaytirish yuqori qo'shimcha qiymatga ega va dunyo bozorida talab kuchli bo'lgan raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarish imkonini beradi. Shuningdek, ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, texnik va texnologik jihatdan yangilashga qaratilgan loyihalarni amalga oshirish, sanoatga ilg'or innovatsion texnologiyalarni ildam joriy etish, sanoat ichki kooperatsiyasi va ishlab chiqarishni mahalliyashtirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish ham ko'p jihatdan ana shunga ko'maklashadi. Chunonchi, joriy yilning oktabr oyida qiymati 4,33 milliard AQSh dollariga teng bo'lgan 33 ta investitsion loyiha, shu jumladan, "O'zbekenergo" davlat aksiyadorlik kompaniyasida – 11 ta loyiha, "Olmaliq kon-metallurgiya kombinati" OAJda – 6 ta loyiha, "Navoiy KMK" davlat korxonasida – 5 ta loyiha, "O'zbekneftgaz" Milliy xolding kompaniyasida – 4 ta loyiha, "O'zmetkombinat" OAJda – 4 ta loyiha, "O'zkimyosanoat" DAKda – 3 ta loyiha nihoyasiga yetkazildi. Chunonchi, Dastur bajarilishining holati joylarda: Qoraqalpog'iston Respublikasida – Surgil koni bazasida Ustyurt gaz-kimyo kompleksi qurilishi ob'ektlarida; Qashqadaryo viloyatida – "Muborak gazni qayta ishlash zavodi" unitar sho'ba korxonasida siqilgan gaz ishlab chiqarishni

kengaytirish uchun propan-butan qorishmasi uskunasi qurilishida, Dehqonobod kaliyli o'g'itlar zavodi quvvatlarini kengaytirishda; Navoiy viloyatida – “Navoiy KMK” davlat korxonasi ob'ektlarida, Navoiy issiqlik-elektr stansiyasidagi bug`-gaz uskunasi qurilishida, texnik kremniy hamda kosmetika mahsulotlari ishlab chiqarishida; Toshkent viloyatida – “O`zmetkombinat” OAJ, “Olmaliq KMK” OAJ va boshqa bir qator korxonalarining ob'ektlarida o`rganildi³¹.

XULOSA

O`zbekistonda kimyo sanoatini rivojlanishining o`ziga xos jihatlari masalalariga bag'ishlangan bitiruv-malakaviy ishi natijalarini umumlashtirish quyidagi xulosalarga kelish va tavsiyalar ishlab chiqish imkonini berdi:

1. Kimyo sanoati sanoatdagi eng muhim tarmoqlardan biri bo`lib, uning asosiy vazifasi mamlakat aholisining maishiy kimyo tavarlariga bo`lgan ehtiyojini qondirishdir. Bugungi zamon texnologiyalarining rivojlanishi, ehtiyojlarni ortishi, istimolchilar uchun zarur bo`gan oziq ovqat, sanoatidagi muammolar, harbiy nizolar, xomashyoni yetishmasligi, yashash sharoitining yaxshilanib borishi kimyo mahsulotlariga bo`lgan talablarni ortishiga va kimyo sanoatiga bo`lgan etiborni yanada kuchaytirishga sabab bo`lmoqda.

2. Boshqa sohalardan farqli ravishda kimyo sanoatning ham o`ziga xos xususiyatlari bor. Bular:

- Tarmoqda kimyo resurs bazasi eng asosiysi bo`lib, qayta tiklanishi qiyin bo`lgan ishlab chiqarish vositasi sifatida namoyon bo`ladi. Kimyo mahsulotlari resurslari cheklangan va uning hajmini kengaytirishni iloji yo`q;
- kimyo sanoati mahsulotlarini ishlab chiqarish yuqori bilib va texnika, texnologiyani talab qiladi;

³¹ Davlat statistika qo`mitasi Axborot xizmati malumotlari 2013.

O`zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi malumotlari 2013.

- kimyo sanoatida ishlab chiqarish turli geografik sharoitlarida olib borilib, ishlab chiqarish jarayonini mexanizatsiyalash, geografik joylashuvini to'g'ri tanlash, ekologik buammolar keltirib chiqarmaslik, kabi xususiyatni e'tiborga olish muhim ahamiyatga ega;
- kimyo sanoati tarmoqlari ichida ko'pgina tarmoqlarida, ayniqsa, lok-bo'yoq materiallari, sintetik bo'yoqlar, asosiy kimyo mahsulotlari (ammiak, noorganik kislotalar, ishqorlar, mineral o'g'itlar, soda, xlor va xlorli mahsulotlar, suyultirilgan gazlar va b) tarmoqlarida ishlab chiqarish jarayoni inson hayoti uchun zararli hisoblanadi;
- kimyo mahsulotlari keyinchalik ishlab chiqarish jarayonida ishlab chiqarish vositasi (dori darmon vositalari, neftni qayta ishlashda va boshqalar) sifatida ishlatiladi;
- kimyo mahsulotlarini qazib olish va ishlab chiqarish og'ir mehnatni, undan tayyorlanga kimyoviy vositalar sanoatning turli tarmoqlarida keng foydalanib, yuqori samara olishni, kimyo vositalari tufayli sodar bo'ladigan noxush xolatlar(o'lim, tan jarohati olish, organizmni ishdan chiqarish va b.)ni oldini olishni talab qiladi.

3. O'zbekiston hududida tabiiy gaz, neft, ko'mir, oltingugurt, tog'-kimyo mahsulotlar, rangli metallar rudasi va boshqa xom ashyolar bo'lganligi uchun mamlakatimiz yirik kimyo sanoatlariga ega. Mamlakatda 3000 ta foydali qazilma koni aniqlangan bo'lib, ularning 19 tasi kon-kimyo foydali qazilma konlaridir. Bu konlar: Osh tuzi konlari (Boybichakon, Xo'jaikon, Tyubegatang, Oqbosh, Laylimkon Borsakelmas, va Oqqal'a), Kaliy tuzi konlari (Tyubegatang, Oqtosh, Odamtosh, Okmachi), Fosforit konlari (Molg'uzor va Nurota fosfarit koni), Oltingugurt koni (Sho'rsuv oltingugurt koni)

4. Kimyo sanoatining xomashyo bazasi boy va xilma-xil. U turli foydali qazilmalardan, ishlab chiqarish chiqindilaridan yog'och, suv, hatto havodan foydalanadi. Turli xil xomashyolardan foydalanish imkoniyatining cheksizligi kimyo sanoati korxonalarini hamma joyda qurishga imkon beradi. Biroq kimyo

korxonalari energiya va suvni ko`p ishlatishi, ayniqsa, tabiatga jiddiy salbiy ta`sir ko`rsatishi sababidan ularni hamma joyda ham qurish maqbul bo`lavermaydi.

5. O`zbekiston sanoati tarmoqlari ichida kimyo sanoati sanoatni tayanchi hisoblanadi. Chuki qishloq xo`jaligida, yoqilg` energetikada, rangli va qora metal ishlab chiqarishda, farmasiftika sanoatida, mashinasozlikda umuman sanoatning barch soxasida kimyo sanoatining o`rni yuqori. Kimyo sanoati — og`ir sanoat tarmoqlaridan biri, xilma-xil kimyoviy mahsulotlar turlari: kon-kimyo xom ashyosi, asosiy kimyo mahsulotlari (ammiak, noorganik kislotalar, ishqorlar, mineral o`g`itlar, soda, xlor va xlorli mahsulotlar, suyultirilgan gazlar va boshqalar), plastmassa va sintetik smolalar, shu jumladan, kaprolaktam, selluloza atsetatlari, kimyoviy tola va iplar, plastmassa va shisha-plastiklardan materiallar va buyumlar, lok-bo`yoq materiallari, sintetik bo`yoqlar, kimyoviy reaktivlar, fotokimyo mahsulotlari, maishiy kimyo tovarlari va boshqalarni ishlab chiqaradi.

6. Sanoat tarmoqlari ichida yuqori ulushga ega tarmoqlar: yonilg`i energetika 17,5%, mashinasozlik va metalni qayta ishlash 16,1%, oziq-avqat sanoati 13,9%, yengil sanoat 13,5%, rangli metallurgiya 10,3% ulushga ega tarmoqlari bo`lib, kimyo va neft-kimyo sanoati esa 5,4% ulushga ega. Kimyo va neft-kimyosanoati YaIM dagi ulushi atiga 2,9%. Bu ko`rsatgichni oshirish maqsadida 1991 yilda respublika kimyo sanoati korxonalari negizida "O`zkimyosanoat" konserni tashkil etildi. 1994 yil martidan kontsern "O`zkimyosanoat" uyushmasiga aylantirildi. 2001 yil martida uyushma tugatilib, uning asosida "O`zkimyosanoat" davlat-aktsiyadorlik kompaniyasi tashkil qilindi va oxirgi besh yil mobaynida kimyo sanoati mahsulotlari 401,0% ga o`sdi.

7. O`zbekistonda zamonaviy kimyo sanoatining shakllanishi 1932 yil qadimdan oltingugurt qazib olingan Sho`rsuv oltingugurt koni (Farg`ona vodiysi)ning ishga tushirilishi bilan boshlandi. Bu korxonada sobiq SSSRda ishlab chiqariladigan oltingugurtning 57% ini bergan va Ittifoqning oltingugurt mustaqilligini ta`minlashda muhim rol o`ynadi.

8. O`zbekistonda kimyo sanoatini barqaror rivojlantirish, ishlab chiqarish quvvatlaridan samarali foydalanish, energiyani tejaydigan hamda ekologik toza texnologiyalarni joriy etish, eksportga mo`ljallangan va import o`rnini bosadigan raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni ko`paytirishga alohida e`tibor qaratilayotgani o`zining yuksak samaralarini bermoqda. Jami eksportda kimyo sanoati ulushi 2005-2011 yillar mobaynida deyarli o`zgarmagan (o`rtacha 5% ulush). Bunga sabab jami eksport bilan kimyo sanoati mahsulotlar eksporti mos ravishda oshib brogan.

9. O`zbekistonda sanoat ahamiyatiga ega mineral xomashyo bazasini rivojlantirish, rudali hududlarni tadqiq qilish, zaxiralarni aniqlash va geologiya-qidiruv ishlariga zamonaviy texnologiyalarni joriy etish ustuvor vazifalardan etib belgilangan. Bu, o`z navbatida, soha ilm-fani va olimlari zimmasidagi mas`uliyatni yanada oshiradi. Shu bois mazkur mintaqaviy konferensiya dunyoning ko`plab mamlakatlaridan kelgan olim va mutaxassislar, ekspertlarning bu boradagi izlanishlari, kashfiyotlari va xulosalarini o`rganishda muhim ahamiyatga ega.

10. Joriy yil 2012 yilning yanvar-sentabr oylarida asosiy kapitalda o`zlashtirilgan investitsiyalar umumiy hajmi 15,3 milliard so`mni tashkil qildi va qiyosiy narxlarda 9,8 foizga oshdi. Jalb etilgan xorijiy investitsiyalar va kreditlar hajmi 2 milliard dollarni tashkil qildi, jumladan, o`zlashtirilgan 1,6 milliard dollarning (o`sish 2011-yilning shu davriga nisbatan 9,6 foiz) 1,3 milliard dollari to`g`ridan-to`g`ri xorijiy investitsiyalardir. Buning natijasida 2012-yilning o`tgan davrida 106 ta investitsiyaviy loyihalarni amalga oshirish yakunlandi. "Sho`rtanneftgaz" unitar sho`ba korxonasida propanbutan aralashmasi qurilmasini barpo etish (5-navbat), Navoiy issiqlik elektr stansiyasida gaz siqish kompressor stansiyasini qurish, Navoiy viloyatida texnik kremniy ishlab chiqarishni tashkil etish (I bosqich), Qalmaqir konini kengaytirish, rekonstruksiya qilish va jihozlash hamda boshqa qator loyihalar shular jumlasidandir. O`zbekistonda investitsiyalar hajmi yildan yilga ortib bormoqda. Shunisi takidlash lozimki kiritilgan investitsiyaning deyarli 33%i sanoat soxasiga yo`naltirilmoqda, ammo kimyo

sanoatiga ajratiladigan investitsiyalar jami investitsiyaning 1-2%ni tashkil etishi albatda salbiy xolat.

11. Prezidentimiz I.A. Karimov tashabbusi bilan amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar samarasi o`laroq, mamlakatimiz sanoatining innovatsion salohiyati sezilarli ravishda oshmoqda. Masalan, bugungi kunda kimyo sohasida amalga oshirilayotgan 11 ta yirik innovatsiya loyihasi eksportbop va import o`rnini bosadigan yangi turdagi mahsulotlar ishlab chiqarish hisobidan tayyorlanayotgan mahsulot hajmini oshirish, yangi ish o`rinlari tashkil etish imkonini beradi.

12. O`zbekistonda kimyo sanoatini iqtisodiyotdagi o`rnini oshib borishida bir qator istiqbol loyihalar rejalashtirilgan. Bular qatoriga: Dehqonobod kaliy o`g`itlari zavodining ishlab chiqarish quvvatini kengaytirish 2-etap (yillik quvvatini 600ming tonnaga yetkazish, loyihaga 254,6 mln\$ sarflanib, 2011-2013 yillarda bitkaziladi), Surgil koni bazasida gaz-kimyo kompleksi qurish (yillik quvvati 400 ming t. politilen, 100 ming t. polipropilen qo`shimcha qilish va 3500 mln\$ sarflab, 2008-2014 yillarda qurib bitkaziladi), “ Muborak gazni qayta ishlash zavodi” unitar shuba korxonasida gaz-kimyo kompleksini qurish, ”Rezinotexnika” OAJ bazasida konveyr lentalarini, Q/x va avtomobil sinalarini ishlab chiqarish kabi yirik loyiha uchun mos ravishda 2305,5 mln\$, 230 mln\$ sarflanadi.

13. O`zbekistonda kimyo sanoati rivojlanishini tahliq qilayotganimizda bir qator muammolarga duch kelishimiz mumkin. Bu muammolar:

– Mamlakatning tabiiy va mineral-xom ashyo resurslari yirik zahiralari mavjud. Ammo bu kabi xom ashyolarni qazib chiqarish, uni qayta ishlash jarayonida texnika texnologiyani eskirganligi va yetishmsligi. Buning natijasida kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish samaradorligi oshmayotganligi. Masalan mineral o`g`itlar ishlab chiqarish 2011-yil 1,2 mln tonna tashkil etgan bo`lsa(1.7-jadval), mineral o`g`itlar orasida birgina azot ishlab chiqarish sanoat quvvati 2,8 mln tonnani tashkil etadi(1.4-jadval). Kimyoviy tola va iplar ishlab chiqarish 2011-yilda 16,2 ming tonnani tashkil etgan bo`lsa(1.7-jadval), bu sanoat tarmog`ini quvvati 180 ming tonnani tashkil etadi(1.4-jadval);

- Kimyo sanoatida yangi turdagi kimyo mahsulotlarini o'zlashtirishda geologik qidiruv ishlari va yangi kashfiyotlar uchun moliyalashtirishni kengroq yo'lga qo'yilmaganligi;
- Zamonaviy ilmiy tadqiqotlar va tajriba ishlarini amalga oshirishda malakali kadrlar va mutaxassis oliiblarni yetishmasligi;
- Kimyo sanoat tarmog'ida innovasion faoliyatning rivojlanmaganligi, ilg'or innovasion yangiliklarning tarmoq korxonalarida kam joriy etilishi. Masalan O'zbekistonga 2011 yil 18291,3 mlrd so'm investitsiya kiritilib, shundan 32,7%i sanoatga yo'naltirildi. Kimyo sanoatiga ajratilgan investitsiyalar jami investitsiyadagi ulushi 2006 yil 2,2% , 2011 yilda esa bu ko'rsatgich 1,0% ga tushdi. Kimyo sanoatiga ajratiladigan investitsiyalar jami investitsiyaning 1-2%ni tashkil etishi albatda salbiy xolat;
- Kimyo sanoati mahsulotlarini ishlab chiqarishda tabiat va insonlarga salbiy zarar yetkaz ehtimoli yuqoriligi, ishlab chiqarish jarayoniga davlat aralashuvini taqoza etilishi. Xususan, Prezidentimiz I.A.Karimovning «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari, taraqqiyot kafolatlari» asarlarida ta'kidlanganidek: «Sanoat korxonalarida atmosferaga, suv havzalariga va tuproqqa ifloslantiruvchi hamda zararli moddalarni tashlaganlik uchun solinadigan maxsus soliqdan keng foydalangan holda ma'suliyatni oshirish darkor. Ularda zamonaviy, samarali tozalash qurilmalari tizimini joriy etish kerak. Boshlang'ich xom ashyodan tayyor, pirovard mahsulot olgunga qadar kompleks foydalanishga imkon beradigan yangi, zamonaviy, ekologik jihatdan samarali uskunalarni o'rnatish lozim».

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI

1. Qonunlar, qarorlar, boshqa huquqiy-siyosiy hujjatlar

1.1. Prezidentimiz I.A.Karimovning "2007-2011 yillar mobaynida Kimyo sanoati korxonalarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash dasturi to`g`risida"gi qarori. O`zA, 2011.

1.2. Prezidentimiz I.A. Karimovning 2007 yil 12 noyabrda qabul qilingan «Ichki tarmoq va tarmoqlararo sanoat kooperatsiyasini yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to`g`risida»gi farmoni ijrosini ta`minlash doirasida hamda 2010 yil 23 martda imzolangan «2010 yilda sanoat kooperatsiyasi asosida tayyor mahsulotlar, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish Dasturi to`g`risida»gi qarori. "Jamiyat ijtimoiy-siyosiy" gazetasi 2010.

1.3. Prezidentimiz I.A. Karimovning Iqtisodiyotning real sektori korxonalarini qo`llab-quvvatlash, ularning barqaror ishlashini ta`minlash va eksport salohiyatini oshirish dasturi to`g`risidagi Farmoni. O`zA, 2011.

1.4. O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001 yil 13-martdagi "Kimyo sanoatini boshqarish tuzilmasini takomillashtirish chora-tadbirlari to`g`risida"gi qarori.

1.5. Prezidentimiz I.A. Karimovning 2010-yil 15 dekabrda qabul qilingan va mamlakatimiz sanoatini barqaror, jadal hamda muvozanatli rivojlantirishga yo`naltirilgan "2011-2015 yillarda O`zbekiston Respublikasi sanoatini

rivojlantirishning ustuvor yo`nalishlari to`g`risida”gi qarori. “O`zbekiston ovozi” 2010.

1.6. Prezidentimizning 2009 yil 12 martda qabul qilingan “2009-2014 yillarda ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnikaviy va texnologik qayta jihozlash bo`yicha eng muhim loyihalarni amalga oshirish chora-tadbirlari Dasturi to`g`risida”gi qarori. “Jamiyat ijtimoiy-siyosiy” gazetasi 2010.

1.7. 2009 yil 11 martda qabul qilingan “Qurilishni jadallashtirish va yangi turdagi kimyo mahsulotlarini o`zlashtirish chora-tadbirlari to`g`risida”gi qarorlari

1.8. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 27dekabrdagi “2012yilga investitsiya dasturi to`g`risida”gi 1668-qarori. “Xalq so`zi”, 2013, 22-yanvar

2. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari va ma`ruzalari

2.1. Prezidentimiz I.A.Karimovning «O`zbekiston XXI asr bo`sg`asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari, taraqqiyot kafolatlari» asari T. O`zbekiston 1997. 336-bet.

2.2. Karimov I.A. “Iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo`lida”. – T: O`zbekiston, 1995. – 273 b..

2.3. Karimov I.A. O`zbekistonning o`z istiqlol va taraqqiyot yo`li. – T.: “O`zbekiston”, 1992. – 74 b.

2.4. Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. – T.: “O`zbekiston”, 2005. – 96 b.

25. Karimov I.A. "Iqtisodiyotni erkinlashtirish va islohotlarni chuqurlashtirish – eng muhim vazifa"-M.: "O`zbekiston" 2000 y.

2.6. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz –vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz faravonligini yanada yuksaltirishdir. – T.: O`zbekiston, 2010. – 80 b.

2.7. Karimov I.A. Barcha reja va dasturlarimiz vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz faravonligini oshirishga xizmat qiladi. – T.: “O`zbekiston”, 2011. – 48 b.

2.8. Karimov I.A. 2012-yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi // 2011-yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2012-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruza. - "Xalq so'zi", 2012, 20-yanvar.

2.9. Karimov I.A. Bosh maqsadimiz – keng ko'lamli islohotlar va modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish // O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2012-yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2013-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruza. "Xalq so'zi", 2013, 22-yanvar

2.10. Prezidentimiz Islom Karimovning "2012 yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi" ma'ruzasi. O'zA, 2012.

3. Kitoblar va monografiyalar

3.1. Kasimov G.M., Maxmudov B.J. Osnovi natsionalnoy ekonomiki. Uchebnik. T.: Mexnat, 2004, 384 b.

3.2. Ishmuhamedov A., Asqarova M. O'zbekiston milliy iqtisodiyoti. O'quv qo'llanma T.: TDIU,. 2004, 342 b.

3.3. To'xliiev N., Xaqberdiev Q., Ermamatov Sh., Xolmatov N. O'zbekiston iqtisodiyoti asoslari. T. O'zME. 2007, 29-36 b

3.4. O'lmasov A. Iqtisodiy bilim asoslari. T. Mehnat, 2001.

3.5. Abdullaev Yo. Maliy biznes i predprinimatelstvo.-T.: Iqtisod-moliya, 2008, - 360 b.

3.6. O'zbekiston Milliy Ensiklopidiyasi. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil

3.7. Li.Kadirov V., O'rin Hasanov, Nuriddin Musayev. "Stanovleniye ximii" v Respublike O'zbekistan, T., 1995.56.b.

3.8. Turobjonov Sadridin Mahamatdinovich, Azimov Obid Ganiyevich, Obidov Bilol Obidovich. “Kimyoning maxsus boblari” o`quv qo`llanma. Toshkent 2004. 7-36-78 b

3.9. O.S.Sodiqov “Organik kimyo nazariy asoslari” kitobi Toshkent 1987. 46-87- betlar.

3.1. To`xliiev N., Xaqberdiev Q., Ermamatov Sh., Xolmatov N. O`zbekiston iqtisodiyoti asoslari. O`quv qo`llanma. T. O`zME. 2004, 280 b.

4. Jurnal va to`plamlardagi maqolalar

4.1. Tomson-Reyter” jahon biznes axborot agentligining bo`linmasi – “Projekt faynens interneshnl” jurnali 2012-yil yakunlari bo`yicha.

4.2. “Jamiyat ijtimoiy-siyosiy gazeta”si , © 2010.

4.3. “O`zbekiston ovozi”, 2010

4.4. “Xalq so`zi”, 2012

5. Statistik to`plamlar va ma`lumotnomalar

5.1. O`zbekiston Davlat statistika qo`mitasi Axborot xizmati malumotlari 2010 yil. 86 b.

5.2. O`zbekiston Respublikasining 2005-yil statistik axborotnomasi. T.: 2006. – 96 b.

5.3. O`zbekiston iqtisodiyoti: Axborot va tahliliy sharh 2007-yil. T.: 2008. – 98-b.

5.4. O`zbekiston Respublikasining 2005-yil statistik axborotnomasi. T.: 2008. – 143 b.

5.5. O`zbekiston Respublikasining 2008-yil statistik axborotnomasi. T.: 2009. – 165 b.

5.6. “Вопросы и статистики” 6/2012. – 46 b.

5.7. Статистическое обозрение Узбекистана за 2009 год. T.: 2010. 87с.

5.8. “O`zbekiston iqtisodiy axborotnomasi” tahliliy jurnali. 1/2013 – 43 b

6. Internet ma`lumotlari

WwW.Kutubxona.TK Partizan_Studio@mail.Ru

www.ziyo.net.

<http://uza.uz/uz/business/15179/>

<http://www.navoiyazot.uz/uzb/progress.html>

www.mf.uz